According to data from the Central Research Institute of the Cotton Industry, one ton of the 108-F variety of ordinary cotton yields 8,620 meters of fabric, while the first and second grades of fine-fiber cotton yield 15,150 meters per ton. From each hectare of fine-fiber cotton, 9,090 meters of high-quality fabric can be obtained, compared to 6,723 meters from the 108-F variety of ordinary cotton [4].

In conclusion the cultivation of fine-fiber cotton holds significant economic and industrial potential due to its superior profitability and efficiency in textile production. Despite historical challenges in meeting production targets, advancements in disease-resistant varieties, improved irrigation systems, and the economic advantages of fine-fiber cotton have demonstrated its viability as a key agricultural sector. Fine-fiber cotton not only provides higher income for farmers compared to ordinary cotton but also produces more fabric per unit of fiber, making it essential for the textile industry.

Regions like Surkhandarya, with their favorable climate, established irrigation infrastructure, and experience in fine-fiber cotton cultivation, are well-positioned to remain at the forefront of production. Expanding cultivation areas, adopting advanced agricultural practices, and enhancing research on resistant and high-yielding varieties can further strengthen the prospects of fine-fiber cotton. As demand for high-quality textiles continues to grow, fine-fiber cotton represents a vital resource for sustaining agricultural profitability and supporting the economy.

## LIST OF REFERENCES

1. Keldiyorov K. Prospects for Fine-Fiber Cotton Cultivation. Tashkent: Central Publishing House of the Communist Party of Uzbekistan, 1969, p. 17.
2. Qobilov Sh.R. The Monopoly of Cotton and Its Devastating Consequences. Tashkent: 2015, p. 45.
3. The Communist Party of the Soviet Union. Nineteenth Congress. Moscow. October 5, 1965.
4. Central Party Committee of the Turkestan Bureau. Additional Resolution on Cotton Harvesting. October 8, 1930. Tashkent.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1492899>

**BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATIV O‘QITISH  
ASOSIDA O‘QUVCHILAR NUTQIY KO‘NIKMA VA MALAKALARINI  
SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI**

**Jurayeva Dildora Ilhom qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish hozirgi kunda fanning alohida muammolaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘sirish, anglash va tinglab tushunish kompetensiyalarini shakllantirishga oid integrativ o‘qitish jarayonida qo‘llanilayotgan hozirgi darslikdagi topshiriqlar mazmuni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** og‘zaki va yozma nutq, nutqiy kompetensiya, tinglab tushunish, integrativ o‘qitish, darslik, boshlang‘ich sinf.

**Abstract.** The formation of speech competencies of younger schoolchildren in native language classes is currently becoming one of the specific problems of science. This article discusses the content of the tasks in the current textbooks used in the process of integrative teaching for the development of oral and written speech, comprehension and listening comprehension competencies of primary school students.

**Keywords:** oral and written speech, speech competence, listening comprehension, integrative teaching, textbook, primary school.


Jamiyat a’zolari o‘z faoliyati davomida juda ko‘p holatlarda o‘qish, so‘zlashish jarayoni bilan to‘qnashadi. Kundalik vaziyatlarda duch keladigan axborotlar bilan tanishadi, ularni analiz va sintez qiladi hamda foydalanadi. Shu jarayon orqali dunyonи o‘rganadi, muhim ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va shaxs sifatida shakllanib boradi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalardan biri —pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzlusiz yuksaltirish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan, bu borada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lmish pedagogik kasbiy refleksiyani ham rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ayni shu jarayon ta’lim jarayonini ham doimiy ravishda yangiliklar bilan boyitib borishni talab etadi. Bugungi kunda o‘quvchilarni oddiy, an’anaviy darslar yoki qat’iy intizomga asoslangan qattiqxo‘llik bilan darslarga jalb etib bo‘lmaydi. Ijodkorlik, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash va hamkorlik bugungi kundagi dars muhitida qimmatli ko‘nikmalaridir. Sinfda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarga ko‘p tarmoqli tajribani rivojlantirishga va hozirgi dunyoda o‘zaro bog‘liqliklarning ahamiyatini tushunishga yordam berishning samarali usuli hisoblanadi. Hozirda hayotimizda tez-tez uchraydigan integratsiya, integratsion yondashuv kabi Muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Integratsiya so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, integratsiya lotincha *integratio* - tiklash, to‘ldirish, *integer*- butun so‘zlaridan olingan bo‘lib, fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadigan jarayonni ifodalaydi.

Zamonaviy ta’limda chuqur integratsiya jarayonlarining muqarrarligini ta’kidlab, I.E. Kashekova shunday yozadi: — Zamonaviy dunyo integral asosda qurilgan bo‘lib, u ko‘p qirrali bilim, malaka, axborot oqimidan to‘g‘ri axborotni tanlash va uni malakali boshqarish qobiliyatini talab qiladi; ta’lim ham integrativ asosda qurilishi, insonni yangi dunyoga tanishtirishi va uni o‘zlashtirishga yordam berishi kerak . Matabning integratsiyalashgan ta’lim maydoni o‘quv materialini takrorlash zaruratini bartaraf etib, dunyo, inson madaniyati, ularning tarkibiy qismlari haqida tizimli va yaxlit bilimlarni ta’minlashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quvchilar oldiga, hayotda bo‘lgani kabi, turli fanlar bo‘yicha bilimlarning integratsiyalashuvini rag‘batlantiradigan fanlararo xarakterdagи vazifalar qo‘yiladi, bu muammolarni hal qilish jarayonida ular ma’lumot izlaydilar, ilmiy xabarlarni bir tildan boshqasiga tarjima qiladilar.

2023-yil amalda qo‘llanilgan umumiy o‘rtta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida ona tili fanidan darslik orqali o‘quvchilarda quyidagi malakalar shakllanayotgan bo‘lishi kerak.



Amaldagi 3 - sinf 2 qismda berilgan ona tili darsligidagi topshiriq mavzu jihatidan o‘qish savodxonligi darsligi bilan o‘zaro bog‘liq ya’ni integratsiyalashgan.

Milliy o‘quv dasturi talablarga kelsak, matnlarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish anglash kompetensiyasini;

A+ matn mazmunini tushunib ifodali o‘qiy olish hamda grammatik salohiyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi;

Shu kitobda berilgan 28-mashq. Matnni o‘qing. Insniy fazilatlar haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu topshiriq bajarilishi jarayonida o‘qib tushunish, og‘zaki nutq kompetensiyasi shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak mavjud amaldagi darslik orqali o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha muammolarga duch kelmaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF-4947-son Farmoni.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida 2005 yil 14-bet
3. <https://www.researchgate.net/scientific-contributions/Irina-E-Kashekova>.
4. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. 15-bet
5. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. 24-bet
6. D. Baynazarova 3-sinf II qism On tili darslik. “Novda Entertainment” Toshkent-2023.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929002>

## YE.KOROVAY IJODINING O'ZBEKISTON RANGTASVIRI RIVOJIDAGI O'RNI

**Jamolova Dilnoza**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
San'atshunoslik va muzeeyshunoslik fakulteti  
San'at nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada XX asr birinchi yarmida ijod qilgan, O'zbekiston rangtasviri rivojlanishida o'zining salmoqli hissasini qo'shgan rassom Ye. Korovay ijodi, uning o'ziga xos ijod yo'li yoritib berilgan. Rassom asarlaridagi rang fakturalari, o'ziga xosligi asarlari misolida o'rganilib, o'zbekiston rangtasviri rivojida makur rassomning o'rni, ijodining bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.*

**Kalit so'zlari:** tasviriy san'at, rangtasvir, grafika, avangard, fovizm, modernizm, portret, kolorit.

Bugungi kunda O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atini o'rganishda, yangi tendensiyalarni tahlil qilishda avvalo, 1920-1930-yillar O'zbekiston rangtasvirida shakllangan badiiy-uslubiy jarayonlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, O'zbekiston milliy tasviriy san'at mакtabining shakllanishida XX asr rangtasviri poydevor va yangi tendensiyalarning asosiy bosqichi hisoblanadi. Ilmiy ekspeditsiyalar natijasida o'lkamizga rus rassomlarining ham kirib kelishi tasviriy san'atning rivojiga sabab bo'ldi. Bunda S.Yudin, I.S.Kazakov, V.R.Razvadovskiyning xizmatlari katta bo'ldi. Keyinchaik esa Turkistonga kirib kelgan avangardchi rassomlar ijod tasirida mahalliy rangtasvir rivojlanaishi davom etdi. XX asr boshlariga kelib yangi plastik g'oyalar rivojlana boshlandi.

Mazkur ikki davrning vakillari Turkiston avangardiga asos solgan. Bu oqim uchun Sharq musavvirligi, ayniqsa miniatyuraning Rus-Yevropa san'ati an'analari uyg'unligi xosdir. I.Mazel, M.Kurzin, V.Ufimsev, N.Kashina, Ye.Korovay, N.Karayan, A.Volkov, A.Nikolayev (Usto Mo'min), A.Isupovlar mazkur

yo‘nalishning vakillari bo‘lgan[1]. 1930-yillarga kelib A.Volkov va M.Kurzin rahbarligida ikkita asosiy brigadalar mavjud bo‘lgan. A.Volkov brigadasi asosan avangar va milliy an’analarni uyg‘unlashtirish asosida asarlar yaratgan bo‘lsa, M.Kurzin brigadasi asosan kubizm, futurizm, suprematizm oqimlarida ijod qilgan bo‘lib, mazkur guruh tarkibida N.Kashina, B.Ufimsev, Ye.Korovaylар ijod qilgan. Vaqt o‘tishi bilan mazkur jarayonlar “Yangi Sharq ustalari”, “Tash AXRR”, “ARI-ZO”, “Izofabrika” kabi turli guruqlar va birlashmalarning yo‘nalishi va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning har biri o‘z yo‘li bilan atrofdagi haqiqatni, bu yerda sodir bo‘layotgan voqealarning dinamikasini o‘zlashtirdi va o‘zlarining badiiy talqinlarini topdi[2].

Mazkur davrda samarqandda ijod qilgan P.Benkov, V.Yeremyan, G.Nikitinlar bilan bir qatorda Ye.Korovayning ham ijodiy guruhi bo‘lib, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan. Ye.Korovay ijodida G‘arb san’ati modernizmi g‘oyalarini Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashtirishga harakatni sezish mumkin.

Elena Ludvigovna Korovay 1900-yil 27-dekabrda (yangi uslub bo‘yicha 1901-yil 9-yanvar) Voronejda tug‘ilgan. Ota-onalari qizining tasviriy san’at bilan shug‘ullanish istagini ko‘rib, 1913-yilda Elena onasi bilan birqalikda Sankt-Peterburgga ko‘chib o‘tdi va gimnaziyaga o‘qishga kirdi, keyin u o‘sha paytda N.K.Rerix direktor bo‘lgan San’atni rag‘batlantirish imperatorlik jamiyati (1914-1917y) chizmachilik mакtabida o‘qishni boshladi. Mazkur maktabda ustozlari I.Ya.Bilibin va P.S.Naumova qo‘lida tahsil olgan. Korovayning dastlabki asarlaridan biri “O‘rmondagи ko‘prik” (1916y) kartinasи bilan mashhur bo‘lgan. Rassom ilk ijodiy davrlarida ham rus va xorijiy san’atni yaxshi bilishi va nozik estetik tuyg‘usi bilan ajralib turgan. 1917-yilda Korovay oilasi Barnaulga ko‘chib o‘tdi va o‘sha yerda Korovay san’atning yangi shakllarini izlash va tadbiq etish bilan shug‘ullanadigan bir guruh chap qanot rassomlari V.N.Gulyaev, V.P. Markova, A.O.Nikulin va keyinchalik uning turmush o‘rtog‘i bo‘lgan M.I.Kurzin bilan uchrashdi. Barnaul davrida u bir qator asarlar yaratadi. “Qizil fondagi pushti qo‘g‘irchoq” va “Qo‘g‘irchoqli natyurmort” (1920-yillar) kabilar. Ye.Korovay natyurmortlarida o‘zining xayoliy olamini yaratadi.

Ulardagi kundalik hayot ajoyib va romantik tasvirlarga aylanadi. Uning asarlari o‘zining bayramonaligi va rang kombinatsiyalarining nafisligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab Ye.Korovay o‘z faoliyatini Markaziy Osiyo bilan bog‘ladi. Ashxobod, Toshkent, Buxoro, Samarqandga sayohat qilgan. Korovay Ulug‘ Vatan urushi tugaguniga qadar Samarqandda yashadi. 1933-yilda Ye.Korovay Rassomlar uyushmasining Samarqand bo‘limini tashkil etishda qatnashib, uning faol a’zolaridan biriga aylanadi. Ye.Korovay birqator teatrarda jumladan: Rus drama teatri, Hamza nomidagi Davlat o‘zbek drama teatri, Hamid Olimjon nomidagi Davlat viloyat o‘zbek musiqa va drama teatri, Samarqand shahridagi Yosh tomoshabinlar teatrida rassom bo‘lib faoliyat yuritadi. Respublika va Butunittifoq ko‘rgazmalarida o‘z ijodiy ishlari bilan faol qatnashib keladi. “O‘zGiz” nashriyotida chop etilgan bolalar kitoblari uchun illyustratsiyalar chizadi (“Ikki og‘ayni”, 1935 y va b.). Rassom grafika (qalam, tush, sangina) va rangtasvirda ko‘plab asarlar yaratgan. Bular “Sobiq gettoda” (1932 y) mavzusidagi butun seriyalar, shuningdek, bir qator portretlar: “Avtoportret” (1933 y), “V.A.Josan portreti” (1934 y, Tretyakov galereyasi), “Qizining avtoportreti” (1938 y), shuningdek, O‘zbekiston xalq rassomlari portretlari turkumini yaratadi.

Ye.Korovay ijodida asosiy mavzularni - ko‘hna Samarqandning eski ko‘chalari, uning aholisi – tikuvchilar, bo‘yoqchilar, ko‘cha sartaroshlari, bozor manzaralari tashkil etadi. Kartinalardagi aholining turmush tarzi, urfodatlar, eski shahar hovlilari, etnik qiyofalar moviy, ko‘k, pushti, kumushrang kulrang teksturalarda o‘zgacha talqin etilgan. Uning 1930-yillarda ishlagan eng yaxshi ijodiy ishlari – “Pushti ayollar. Tong”, “Sobiq gettoda” trilogiyasi: “Buxorolik duradgorlar”, “Buxorolik tikuvchilar” va “Hunarmand bo‘yoqchilar”dir. “Pushti ayollar. Tong” asarida Korovay tong saharda go‘yo yerga tushib kelgan ayol farishtalar timsolini tasvirlagan. Endi yorishayotgan tong, tongi shafaqt, ayollarning pushti liboslari kartinaga o‘zgacha rux va taassurot bag‘ishlagan.

1930-yillarning ikkinchi yarmidagi “formalizmga qarshi kurash” kampaniyasi O‘zbekistonga ham yetib bordi va atrof asta-sekin bo‘shab bordi – do‘stlarning ba’zilari hibsga olindi (Kurzin, Gulyaev, Usto Mo‘min), ba’zilari keyinchalik urushda

halok bo'ldi. Rassomlar uyushmasi fondiga tushgan Korovayning ko'plab asarlari 1940-yillarning oxirida omborlarni "tozalash" paytida yo'qolgan.[2]

Keyinchalik Ye.Korovay Moskvaga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Moskvada E.L. Korovay o'yinchoqlar sohasida ishlagan, badiiy niqoblar yasagan. 1955-yilda u Favorskiyning Varshavadagi Sovet elchixonasi uchun mozaik panno ustida ishlagan, U bir qator portret va natyurmortlar yaratadi: "Galya Goyrahning apelsin bilan portreti" (1961), "Eski vazadagi Лопухи" (1967), "Sariq gul" (1966), "Xrizantemali kaktus", "Begona", "Oila portreti", "Skameykadagi meva" (barchasi 1968 yil) va boshqalar. Bu asarlarda yozuv uslubi o'zgaradi. Asarlardagi yorqin faktura kamaydi, konturlar keskinlashdi.

1960-yillarning boshlarida Samarqand san'at muzeyi boloxonasidan rassom G.I.Ulko Korovay asarlarini rulon shaklida o'ralgan holda topdi. Ulko rassomni shaxsan tanimasa ham, u rasmlarni Moskvaga ko'rsatilgan manzilga yubordi. Shunday qilib, yo'qolgan asarlar yigirma yildan so'ng muallifga qaytadi. 1966 yilda Nukus shahridagi hozirgi mashhur Qoraqalpoq san'at muzeyi asoschisi Igor Vitaliyevich Savitskiy E.Koravay oldiga shaxsan tashrif buyurdi va muzey uchun "Sobiq gettoda" turkumini va boshqa asarlarni sotib oldi. 1968-yilda Moskvada Sharq xalqlari san'ati muzeyida "O'zbekiston rassomlarining 1920-1930-yillardagi rangtasvir va grafikasi" ko'rgazmasi tashkil etildi. Bir yil o'tgach, 1969-yilda Korovay Moskva qishloq xo'jaligi ittifoqiga qabul qilindi.

E.L.Korovayning asarlari Nukusdagi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat muzeyi, Davlat Tretyakov galereysi, Moskvadagi davlat sharq san'ati muzeyi, Barnauldagi Oltoy o'lkasi davlat san'at muzeyi, Samarqand, Omskdagi muzeylarida, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelinmoqda. Rassomning o'zbekistonda yashab ijod qilgan davrlarida ishlangan asarlarini bir necha guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Rangtasvirda maishiy janr, portret janrlarida ijod qilgan bo'lsa, grafikada: qalamtasvir, linogravura, ksilografika, akvarelda salmoqli ijod qilgan. Uning lenogravjurada ishlangan "Ikki qiz ", "ikki yosh", "Ayol,bola va ko'za" (1928y), kselografikada "Illarion Golitsin."1968y) asarlari, qalamtasvirda "M.Kurzin portreti", "Buxoro, Labi

hovuz”, “Buxoro machit”, “Buxoro choyxona”, “Do‘ppili qiz”, akvarelda ishlangan “Ikki o‘zbek qizi”, “Bola”, “Bola va qiz. Buxoro yevreylari” va boshq bir qancha asarlari ishlash usuli va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning “Bo‘yoqchilar” (1931-32y), “Bozor”, “Tikuvchilar”, “Samarqand manzarasi”, “Samarqand sartaroshlari” kabi rangtasvir asarlari mashhurdir. Yangi davr qahramonlari – hurlikka erishgan ayolar, dala mehnatkashlari, ishchi vaziyolilar timsolini ochib beruvchi tipologik portretlarni 1920-1930 yillar rangtasviridagi ustuvor tamoyillardan biri sifatida ajratish lozim. Bu davrda A.Volkov, O‘Tansiqboyev, N.Karaxan, A.Podkoviroy, shuningdek, O.Tatevosyan, M.Kurzin, Ye.Korovay, A.Sidqiy, V.Markova kabi rassomlar zamondoshlar portretini yaratishda avangart oqimlari hamda milliy meros bilan aloqador dekorativ talqin shakillaridan keng foydalangan[4]. Ye. Korovay portret janrida ham bir qator asarlar yaratgan bo‘lib ulardan “Ayol portrti”, “Faridaning qizil rangdagi portreti”, “Fotima portreti”, “Rassom portreti”, “Avtoportret” kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Rassom ko‘plab avtoportretlar yaratgan bo‘lib, 1920-1930 yillar jamiyatda yuz bergen murakkab o‘zgarishlar jarayonida avtoportret boshqa rassomlar singari Ye.Korovay uchun ham o‘z-o‘zini idrok etishning badiiy vositasi sifatida xizmat qilgan. 1930-yillarga kelib rangtasvirda kolxozchilar, ishchilar, ziyorolar qiyofalarini yaratish dolzARB mavzulardan biriga alanadi. Mazkur davrda Ye.korovay tomonidan yaratilgan “H.Murodovning oilasi”, “Usta” portretlari o‘ziga xos bo‘lib, umumlashtirilgan obrazlar talqini, ekspressiv talqin usuli, orazlardagi ruhiy qarama-qarshiliklari bilan ahamiyatlidir.

Ye. Korovay qaysysi janrda ijod qilmasin uning asarlarida yorqin ranglar ohangi, kuchli koloristik mahorati ustunlik qiladi. Rassom asardagi asosiy g‘oyalarni soda chizmalar va yorqin ranglar uyg‘unligida ochib berishga urunadi. Aynan rassomning o‘ziga xosligi ham shunda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda uning asarlar muzeylardagi qimmatli ijod namunalardan hisoblanishi bejizga emasdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimkulova.D. 1920-1930 yillar rangtasviri O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanish jarayoni kesimida // Monografiya. T, 2020 y. -196 b
2. “Bizning merosimiz” jurnali, 2009 yil, 89-son <https://www.trv-science.ru/2014/01/elena-korovajj-khudozhnik/>
3. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Ташкент, 2004. – 224 с.
4. A.Imomov. O‘zbekiston rangtasvirida portret janrining shakillanish xususiyatlari. Avtoreferat. T, 2022 y.
5. KULTASHEVA, N. (2019). SOME ASPEKTS OF PORTRAIT GEME OF UZBEKISTAN EARLY XX CENTURY. *Culture and Arts of Central Asia*, 11(1), 80-84.
6. KULTASHEVA, N. (2022). BAYAT MUKHTAROV AND HIS PLASTIC INNOVATIONS. *Art and Design: Social Science*, 2(01), 6-8.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929017>

## GLOBALIZATION PROCESSES AND THE IDEOLOGICAL LANDSCAPE OF TODAY'S WORLD

Associate Professor: **Sattorova D.G.**

TSDI Department of Social Sciences with a Course in Bioethics

**Ganiyev O.R., Ergashev I.**

Residents of the Department of Surgical Dentistry:

### **ANNOTATION**

*This article examines the impact of globalization on the ideological landscape of the modern world. It explores key aspects of globalization, including economic integration, cultural exchange, and political transformations. Special attention is given to ideological shifts, such as the tension between tradition and modernity, the rise of nationalism, and the influence of digital technologies on global discourse. The study highlights the challenges and prospects of globalization, emphasizing the need for a balanced approach that respects cultural identities while embracing progress.*

**Keywords:** Globalization, ideology, cultural exchange, nationalism, modernity, economic integration, digital transformation, political shifts.

### **Introduction**

Globalization is one of the most defining processes of the modern era, shaping political systems, economic structures, cultural identities, and ideological trends. Over the past few decades, advancements in technology, communication, and transportation have accelerated the interconnectedness of nations, transforming the way societies interact and evolve. This phenomenon has led to significant shifts in the ideological

landscape, where traditional values and local identities are being challenged by global trends, new worldviews, and emerging cultural paradigms. While globalization offers numerous opportunities for progress, cooperation, and economic growth, it also raises complex questions about identity, sovereignty, and ideological conflicts.

### The Impact of Globalization on the Modern World

Globalization has profoundly influenced various aspects of human life. Some of its key effects include:

#### 1. Economic Integration and Market Expansion

The global economy has become increasingly interdependent, with multinational corporations, international trade agreements, and digital markets driving economic growth. Countries benefit from technological innovations and access to international markets, leading to economic expansion. However, globalization has also created economic disparities, where wealth is concentrated in certain regions while others struggle with poverty and inequality.

#### 2. Cultural Exchange and Hybridization

The rapid spread of information and media has facilitated cultural exchange, allowing people to experience and adopt foreign traditions, lifestyles, and ideologies. While this fosters global unity and mutual understanding, it also raises concerns about cultural homogenization, where dominant cultures overshadow local traditions and identities.

#### 3. Political and Ideological Transformations

The influence of global institutions such as the United Nations, the World Bank, and the International Monetary Fund has reshaped governance and policy-making worldwide. At the same time, ideological shifts—such as the spread of liberal democracy, human rights movements, and environmental activism—have gained momentum. However, resistance to global influences has also emerged, leading to nationalist movements, protectionist policies, and ideological polarization.

### The Ideological Landscape of Today's World

In the modern era, ideological conflicts are becoming more pronounced as societies navigate the challenges of globalization. Some of the key ideological trends include:

### 1. The Tension Between Tradition and Modernity

Many societies are experiencing a clash between traditional values and modern ideologies. While globalization promotes progressive ideas such as gender equality, technological innovation, and individual freedoms, some cultures seek to preserve their historical values, religious beliefs, and societal structures. This tension manifests in debates over education, governance, and social norms.

### 2. Rise of Nationalism and Identity Politics

In response to globalization, many nations have witnessed a resurgence of nationalism. Political leaders and communities emphasize national identity, sovereignty, and cultural heritage as a counterbalance to global influences. This trend is evident in policies aimed at controlling immigration, protecting local industries, and reinforcing national traditions.

### 3. Technological Influence on Ideology

The digital revolution has transformed the way people access information and shape their beliefs. Social media platforms, artificial intelligence, and online news sources have created an environment where ideological battles unfold instantly. While technology enables the spread of knowledge and awareness, it also contributes to misinformation, propaganda, and ideological radicalization.

### Challenges and Future Perspectives

Globalization presents both opportunities and challenges. On one hand, it has contributed to economic growth, scientific advancements, and cultural enrichment.

On the other hand, it has intensified ideological divisions, creating challenges in governance, diplomacy, and social cohesion. To navigate the complexities of globalization, societies must find a balance between embracing progress and preserving cultural identities. Governments, educational institutions, and global organizations must work towards fostering mutual understanding, promoting dialogue,

and addressing economic and ideological disparities. The future of globalization will depend on how effectively societies adapt to change while maintaining their unique identities and values.

### **Conclusion**

The processes of globalization have reshaped the world, influencing economies, cultures, and ideologies. While globalization has brought undeniable progress, it has also led to ideological tensions, cultural transformations, and political realignments. The modern ideological landscape is shaped by the interplay between tradition and modernity, nationalism and globalism, and technological innovation and ethical considerations. Understanding these dynamics is essential for creating a more inclusive, balanced, and cooperative global future.

### **Sources:**

1. Friedman, T. L. (2005). *The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-first Century*. Farrar, Straus and Giroux.
2. Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and Its Discontents*. W.W. Norton & Company.
3. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. Simon & Schuster.
4. Giddens, A. (1999). *Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives*. Profile Books.
5. Scholte, J. A. (2005). *Globalization: A Critical Introduction*. Palgrave Macmillan.
6. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell.
7. Robertson, R. (1992). *Globalization: Social Theory and Global Culture*. SAGE Publications.
8. Appadurai, A. (1996). *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization*. University of Minnesota Press.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929033>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARINI O‘QITISH METODIKASI

**Turoyeva Nargiza**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi.

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti boshlang‘ich  
fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Email: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda kelishik qo‘shimchalarini o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillari, samarali usullari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos holda kelishik qo‘shimchalarini o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kelishik qo‘shimchalar, boshlang‘ich ta’lim, metodika, interfaol o‘qitish, grammatik kompetensiya.

**Abstract.** This article analyzes the main principles, effective methods, and technologies of teaching case suffixes in primary school classes. Innovative approaches and interactive methods used in the process of teaching case suffixes, considering the age characteristics of primary school students, are examined.

**Keywords.** Case suffixes, primary education, methodology, interactive teaching, grammatical competence.

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные принципы, эффективные методы и технологии обучения падежным окончаниям в начальных классах. Рассматриваются инновационные подходы и интерактивные методы, используемые в процессе обучения падежным окончаниям с учетом возрастных особенностей учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** Падежные окончания, начальное образование, методика, интерактивное обучение, грамматическая компетенция.

### Kirish

Tilshunoslikda kelishik qo'shimchalari so'zlar o'rtasidagi grammatick bog'lanishlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida olti xil kelishik mavjud bo'lib, ularning har biri so'zning sintaktik rolini belgilaydi. Boshlang'ich sinflarda ushbu mavzuni o'qitish o'quvchilarning nutqiy va yozma savodxonligini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kelishik qo'shimchalarini o'rgatishda samarali metodikalardan foydalanishlari lozim.

### Asosiy qism

Boshlang'ich sinflarda kelishik qo'shimchalari haqida o'quvchilarga sodda va tushunarli tarzda tushuntirish muhim. Quyida kelishik qo'shimchalari haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan:

Kelishik qo'shimchalari so'zning boshqa so'zlar bilan bog'lanishiga yordam beradigan qo'shimchalardir. Ular otlarga qo'shiladi va gapda turli vazifalarni bajaradi. O'zbek tilida olti xil kelishik bor, ularning har biri o'ziga xos ma'no anglatadi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun o'yin va mashqlar Rasm asosida so'roq berish:

Rasm ko'rsatilib, "Bu kim?" yoki "Bu nima?" deb so'raladi (nom kelishigi). Keyin, "Bu kimning noutbuki?" yoki "Bu nimaning soyasi?" kabi savollar berib, qaratqich kelishigi tushuntiriladi.

Ketma-ket so'zlar: Bir so'z aytildi va o'quvchilar uning barcha kelishik shakllarini aytishadi. Masalan: *kitob* → *kitobning*, *kitobni*, *kitobga*, *kitobdan*, *kitobda*.

Shu usullar orqali o'quvchilar kelishik qo'shimchalarini osonroq o'zlashtirishlari mumkin.

O'zbek tilida kelishik qo'shimchalari so'zlarning gap ichida qanday vazifani bajarishini ko'rsatadi va so'zlar o'rtasidagi grammatick bog'lanishlarni belgilaydi. Ular ot so'z turkumiga qo'shilib, gap tarkibida turli sintaktik rollarni ifodalaydi. O'zbek tilida olti xil kelishik mavjud:

**Bosh kelishik** – Ot o‘zining asliy holida bo‘lib, ega vazifasini bajaradi. Misol: *Bola o‘ynayapti*.

**Qaratqich kelishigi** – Egallik yoki egalik munosabatini bildiradi. Misol: *Bolaning kitobi stol ustida*.

**Tushum kelishigi** – To‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Misol: *Bola kitobni o‘qiyapti*.

**Jo‘nalish kelishigi** – Harakat yo‘nalishini bildiradi. Misol: *Bola məktəbga ketdi*.

**O‘rin-payt kelishigi** – Harakatning sodir bo‘lish joyini yoki vaqtini bildiradi. Misol: *Bola uyda o‘qiyapti*.

**Chiqish kelishigi** – Harakat manbasini bildiradi. Misol: *Bola məktəbdan keldi*.

Boshlang‘ich sinflarda kelishik qo‘shimchalarini o‘qitishda vizual materiallardan, o‘yin metodlaridan va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish muhimdir.

Boshlang‘ich sinflarda kelishik qo‘shimchalarini o‘qitishning ahamiyati. Kelishik qo‘shimchalari o‘quvchilarning gap tuzish, nutqiy faoliyatini rivojlantirish va yozma savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu qo‘shimchalarni o‘zlashtirish orqali bolalar so‘zlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni to‘g‘ri tushunishadi va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olishadi.

Kelishik qo‘shimchalarini o‘rgatishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

**Ko‘rgazmali metod:** O‘quvchilarga rasm, jadvallar va diagrammalar orqali kelishik qo‘shimchalarining ishlatalishini tushuntirish.

**O‘yin metodlari:** “So‘z topish”, “So‘zлarni bog‘lash”, “Qaysi kelishik?” kabi interfaol o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash.

**Mustaqil ish usuli:** Matn yoki gaplar ustida ishlash orqali o‘quvchilarga kelishik qo‘shimchalarini amaliy o‘rgatish.

**Dialog va rolli o‘yinlar:** Bolalar o‘rtasida muloqotni tashkil etish orqali kelishik qo‘shimchalarining nutqiy qo‘llanilishini mustahkamlash.

Boshlang‘ich sinflarda kelishik qo‘shimchalarini o‘qitishda duch kelinadigan qiyinchiliklar:

O‘quvchilarning grammatik qoidalarni eslab qolishdagi qiyinchiliklari.

So‘zлarning kelishikdagi shakllarini to‘g‘ri qo‘llay olmaslik.

Ona tilidan boshqa tillarga ta’sir qilish natijasida xatolarga yo‘l qo‘yish.

O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish muammosi.

### Muammolarni hal qilish yo‘llari

O‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish.

Amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish.

So‘z va gaplar ustida mustaqil ishlashga yo‘naltirish.

O‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish.

### Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda kelishik qo‘sishimchalarini o‘rgatish o‘quvchilarning til madaniyatini rivojlantirish va grammatik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali bolalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar samarali metodlarni tanlash va ularni amaliyotda qo‘llash orqali natijadorlikka erishishlari lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ona tili metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik):[Qosimova , S.Matchonov,X G‘ulomova,Sh. Yo‘ldoshova,Sh. Sareyiv.-T.”NOSHIR”,-2009.
2. Qo‘chqorov.Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”-Toshkent:O‘qituvchi,2001
3. Mahmudov.N,Nurmatov.A. "O‘zbek tilining nazariy grammatikasi"-Toshkent:Fan.2005.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929045>

## FONETIKA, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Abdulazizova Dilnoza**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fonetika fanining mohiyati, uning maqsad va vazifalari yoritilgan. Fonetika tili o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati haqida tushunchalar berilib, uning turli yo‘nalishlari hamda tadqiqot usullari haqida ma’lumotlar taqdim etilgan. Fonetika tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, tovush tizimini, uning tuzilishi, talaffuz xususiyatlari va akustik xususiyatlarini o‘rganadi. Fonetikaning maqsadi — tilning tovush tizimini tadqiq qilish va nutq tovushlarini ilmiy jihatdan o‘rganishdir. Ushbu maqolada fonetikaning asosiy yo‘nalishlari, uning amaliy va nazariy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Fonetika, tilshunoslik, nazariy amiyati, artikulyatsion, akustik, auditor.

**Abstract:** This article discusses the essence of the science of phonetics, its goals and objectives. It provides an understanding of the role and importance of phonetics in language learning, and provides information about its various areas and research methods. Phonetics is one of the main branches of linguistics, studying the sound system, its structure, pronunciation features and acoustic properties. The purpose of phonetics is to study the sound system of a language and the scientific study of speech sounds. This article discusses the main areas of phonetics, its practical and theoretical significance.

**Keywords.** Phonetics, linguistics, theoretical significance, articulatory, acoustic, auditor.

## KIRISH

Fonetika tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, til tovushlarini, ulaming hosil bo‘lish jarayoni, fiziologik va akustik xususiyatlarini o‘rganadi. Tilning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog‘liq bo‘lishi fonetikaning ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu maqolada fonetikaning maqsad va vazifalari batafsil tahlil qilinadi.

## ASOSIY QISM

### 1. Fonetikaning mohiyati

Fonetika – til tovushlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u turli yo‘nalishlarga ega. Tilshunoslik doirasida fonetika uchta asosiy bo‘limga ajratiladi: artikulyatsion, akustik va auditor fonetika. Artikulyatsion fonetika nutq organlarining ishtirokida tovushlarning hosil bo‘lish jarayonini o‘rganadi. Akustik fonetika esa tovushlarning fizik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Auditor fonetika esa nutq tovushlarining qabul qilinish jarayonini o‘rganadi.

### 2. Fonetikaning maqsad hamda vazifalari

Fonetikaning asosiy maqsadi – nutq tovushlarining hosil bo‘lishi, talaffuzi, akustik tuzilishi va idrok qilinishini ilmiy jihatdan o‘rganishdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Til tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini o‘rganish;
- Nutq tovushlarini tasniflash va tahlil qilish;
- Fonetik qonuniyatlarini aniqlash;
- Nutq tovushlarining o‘zgarishini va rivojlanishini o‘rganish;
- Lingvistik tadqiqotlar va amaliy nutq texnologiyalarida foydalanish uchun ma’lumotlar bazasini yaratish.

### 3. Fonetikaning amaliy ahamiyati

Fonetika amaliy jihatdan muhim soha bo‘lib, u lingvistika, psixologiya, pedagogika, logopediya va sun’iy intellekt tadqiqotlarida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, xorijiy tillarni o‘rganishda fonetika to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, nutq sintezatori va ovoz tanish texnologiyalarida ham fonetik tadqiqotlardan keng foydalaniladi.

Nutqning tovush tomoni segment (*lotincha: segmentum* — qirqim, parcha, bo‘lak) va ustsegment (supersegment) birliklarga bo‘linadi. Segment birliklar ketmaket joylashadi (bir vaqtning o‘zida 2 ta tovushni talaffuz qilib bo‘lmaydi). Shuning uchun ularni silsilali yoki ketmaket birliklar deyish mumkin.

U stsegment birliklarga urg‘u va ohang (intonatsiya) kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo‘yiladi va ularga turlicha tus beradi.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a’zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya’ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma’lum elastik jiyemni tebratishidan hosil bo‘ladi; demak, uning akustik (fizik) jihatni bor. Uchinchidan, muayyan so‘z va morfemaning ma’no tomoni bilan tovush qobig‘i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma’lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma’noni idrok etadi, bu perceptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimmi, nutq ma’lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlari ko‘ra turli nuqtai nazardan o‘rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o‘rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo‘linadi: umumiylar; tarixiy (dioxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika. Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o‘rganiladi.

Umumiylar barcha tillar uchun umumiylar bo‘lgan fonetik xususiyatlarni (nutq tovushlarining hosil bo‘lishi, ularning universal tasnifi, tovushlarning birikish qonuniyatları, yondosh tovushlardan birining ikkinchisiga ta’siri va boshqalarni) o‘rganadi. Umumiylar fonetika xususiy fonetika materiallariga asoslanadi. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini tarixiy taraqqiyotida, rivojlanish jarayonida o‘rganadi. Tasviriy fonetika esa muayyan til fonetik tizimining hozirgi holatini o‘rganadi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslabo‘rganadi. Eksperimental fonetika nutqtovushlarini, fonetik hodisalarini ma’lum texnik vositalar yordamida o‘rganadi.

Nutq tovushlarining hosil bo‘lish mexanizmini o‘rganish 17-asrda boshlangan bo‘lib, bu hol karsoqovlarni o‘qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X. P. Bonet, angliyalik J. Uilkins, niderlandiyalik I. Amman asarlari). Tilning tovush tomonini har jihatdan lintvistik nuqtai nazardan o‘rganish birinchi marta nemis olimi E. Ziversning „Tovush fiziologiyasi asoslari“ (1876, 2-nashri „Fonetika asoslari“ deb nomlanadi, 1881) asarida kuzatiladi. Rossiyada umumiylar fonetikaning rivojiga I. A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A. Bogoroditskiy va L. V. Shcherbalar o‘z asarlari bilan muhim hissa qo‘shdilar.

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog‘liq, chunki tovush, urg‘u va ohangsiz bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi va ran bo‘lmaydi. Shu tufayli fonetika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog‘liq til

bosqichi deb qaraladi. O‘zbek tili fonetikasi ham chuqur o‘rganiermoqda. O‘zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, fonetika Abdullayev, A. G‘ulomovlar; o‘zbek tili fonetikasini 60-yillardan oxiridan eksperimental o‘rganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar; o‘zbek tilining tarixiy fonetikasini o‘rganishda fonetika Abdullayev, G. Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Ne’matov, E. Umarovlarning xizmatlari katta

## XULOSA

Fonetika tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tilning tovush tizimini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Uning maqsadi til tovushlarining hosil bo‘lishi, akustik va psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat. Amaliy jihatdan fonetika ta’lim, kommunikatsiya, texnologiya va tibbiyot sohalarida katta ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedov, A. (2015). "Tilshunoslik asoslari." Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Xo‘jayev, M. (2018). "Fonetika va fonologiya." Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Matusevich M. I., Vvedeniye v obshuyu fonetiku, M., 1959; Reshetov V. V., Uzbekskiy yazik, ch. 1. Vvedeniye. Fonetika, T., 1959; Xozirgi o‘zbek adabiy tili, 1j., T., 1966;
4. Baskakov N. A., Sodiqov A. S, Abduazizov A. A., Umumiy tilshunoslik, T., 1979; Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Sravnitelnoistoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. Fonetika, M., 1984;
5. Ne’matov H., O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi, T., 1994;
6. Reformatskiy A.A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998.

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929059>**

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH**

**Madraximova Madinabonu Murodjon qizi**

Nizomiya nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiya nomidagi Toshknet davlat pedagogika  
Universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitish hamda o‘qitishdagi metodlar va mustaqil ishlar yoritilgan. O‘quvchilarning sifat so‘z turkumini chuqur o‘zlashtirishlari uchun interfaol metodlar, mashg‘ulotlar va usullar bayon etilgan. Maqola o‘qituvchilarga sifat so‘z turkumini samarali va qiziqarli o‘rgatish yuzasidan tavsiyalar taklif etilgan.

*Kalit so‘zlar:* so‘z turkumi, sifat so‘z turkumining ahamiyati, til ko‘nikmalarini rivojlantirish, samarali metodlar, mashg‘ulotlar, interfaol metodlar, mustaqil ishlar, ko‘rgazmalar.

*Аннотация.* В данной статье описаны методы преподавания и изучения и самостоятельной работы с прилагательной лексикой в начальных классах. Описаны интерактивные методы, мероприятия и способы углубленного освоения учащимися словаря прилагательных. В статье предложены рекомендации по эффективному и интересному обучению учителей прилагательной лексике.

*Ключевые слова:* словарный запас, важность качественной лексики, развитие языковых навыков, эффективные методы, обучение, интерактивные методы, самостоятельные работы, выставки.

**Abstract.** In this article, a series of adjectives in primary grades teaching and learning methods and independent work are covered. The article offers recommendations for effective and interesting teaching of adjective vocabulary to teachers.

**Key words:** vocabulary, importance of qualitative vocabulary, development of language skills, effective methods, training, interactive methods, independent works, exhibitions.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini o‘tish bolalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish va shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha so‘z turkumlari singari sifat so‘z turkumi ham o‘quvchilarga atrof-olamni ya’ni yashab turgan borliqni ta’riflash hamda tasvirlashda, fikrlarini aniq va ravon shaklda bayon etishda ko‘maklashadi. Shuning uchun, sifat so‘z turkumini bexato va faktlar asosida o‘qitish boshlang‘ich ta’limning juda muhim tomonlaridan biri hisoblanadi.

Sifat so‘z turkumining ahamiyatlari haqida so‘z yuritsak. Bu so‘z turkumi predmetlarning belgisini bildiruvchi so‘z turkumi. O‘quvchilarga predmetlarning belgilari ya’ni rang-tusini, hajmini, shakllarini, xususiyatini va sifat darajasini tushunishda yordamlashadi. Masalan, rang-tus bildiruvchi sifatlar – oq, sariq, qizil, pushti; maza-ta’m bildiruvchi sifatlar – achchiq, shirin, taxir, nordon; xususiyat bildiruvchi sifatlar – yumshoq, issiq, ayyor, sodda; shakl bildiruvchi sifatlar – to‘g‘ri, egril, dumaloq, uchburchak; hajm bildiruvchi sifatlar – katta, kichkina, baland, past va hokazolar.

Bundan tashqari, „oq atirgul“, „shirin paxta“, „ayyor tulki“, „dumaloq pufak“, „baland minora“ singari birikmalar orqali o‘quvchilarning tasviri tatafakkur olamini rivojlantiradi.

Sifat so‘z turkumi o‘qitishda bir qancha metodlardan foydalanilsa, darslar yanada samarali o‘tiladi.

- Kuzatish va muhokama qilish metodi. Ushbu metodda o‘quvchilarda turli predmetlar va rasmlar ko‘rsatiladi va ular

ko‘rsatilgan narsalarning qanday xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashlari talab qilinadi.

- Mashqlar, topshiriqlar va o‘yinlar metodi orqali „Kim topqir va chqqon?“, „Sifatni top“ kabi didaktik o‘yinlar bilan o‘quvchilarni sifat so‘z turkumi haqidagi bilimlarini mustahkamlab olish mumkin bo‘ladi.

- Matn ustida ishslash metodi. Hikoya va matnlar ichidan sifatlarni topib, ajratib ularning qaysi so‘zga bog‘lanib kelayotgani hamda qanday vazifa bajarayotganini izohlash.

- Tasviriy ko‘rgzamalar. Rang-barang taqdimotlar va rasmor asosida sifatlarni tasvirlab, ularni gap ichida qo‘llash.

Shu bilan kifoyalanib qolmay, dars jarayonida qo‘llanilsa bo‘ladigan usullar haqida aytib o‘tsam. Bularga misol qilib:

interfaol metodlar, mustaqil ishlar va rol o‘yinlarini olsak bo‘ladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va bilimlarini yanada chuqurroq rivojlnatirishga ko‘mak beradi. Bir qancha interfaol usullardan namunalar keltiraman:

1. „Aqliy hujum” metodi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar bilimlarini faollashtiradi.

2. „Klaster” metodini qo‘llash esa sifat so‘z turkumini visual ravishda anglashni tezlashtiradi va osonlashtiradi.

3. „Kim ko‘proq so‘z topa oladi”. Sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni izlab topish orqali o‘quvchilarning so‘z boyliglari oshadi.

4. „Rasmdan sifatni top” bu metod bilan o‘quvchilarning qay darajada topag‘on va kuzatuvchan ekanliklari yuzaga chiqadi.

Mustaqil ishlarni dars jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilarning mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga, mustaqil o‘zi fikrlashiga turtki bo‘ladi. Quyida sifat so‘z turkumini mustaqil o‘zlashtirishga usullarni keltiraman:

1. „Jumlanı to‘ldır” mashg‘uloti. Tushib qolgan yoki nuqtalar qo‘yib ketilgan joyga sifatga doir so‘zlarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Misol uchun: 1. Kecha men .... bog‘ga sayrga chiqdim. (yashil, go‘zal, katta). 2. Do‘stilrim bilan .... san’at muzeyiga bordik. ( yangi, eski, tarixiy).

2. „Sifat piramidi” ushbu usul o‘quvchilarga sifatlarni birinma-ketinlikda o‘zlashtirishda ko‘maklashadi.

Masalan: o‘quvchilarga „gul” so‘zi aytildi. O‘quvchilar gulga doir sifatlarni ketma-ket aytadilar.

Misol: gul- chiroyli, xushbo‘y, rang-barang, foydali, manzarali.

3. „Yolg‘on va to‘g‘ri sifat” metodi. Bu usul o‘quvchilarning tanqidiy va tahlili fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Masalan: o‘qituvchi bir necha gaplar o‘qiydi, o‘quvchilarning vazifasi aytilgan gaplarning qay darajada to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Misol: 1. Osmon qizil rangda. ( noto‘g‘ri)

2. Xo‘roz tuxum qo‘yadi. (noto‘g‘ri)

3. Bir yilda 4 fasl mavjud: bahor, yoz, kuz, qish. ( to‘g‘ri).

Xulosa o‘mida shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitish o‘quvchilarning tasviriy tafakkurini, ongini, nutqiy faolligini va dunyo haqidagi bilim va ko‘nikmalarini oshiradi hamda boyitadi. Yuqqorida keltirgan metodlardan dars davomida foydalanish esa sifat so‘z turkumini o‘zlashtirishga oson, sodda va samarali o‘rgatilishni ta’minlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga o‘yinlar, metodlar va mashg‘ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Otaboyev A., Jo‘rayev N. "Ona tili o‘qitish metodikasi". Toshkent, 2020.
2. Xoliqov M. "Tilshunoslik asoslari". Toshkent, 2018.
3. Rahimov Sh. "Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi". Samarqand, 2019.
4. Nizomov D. "Ona tili va adabiyoti darslari uchun metodik qo‘llanma". Toshkent, 2021.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929073>

## BADIY PUBLITSISTIKA VA SHOIR IJODI ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA

**Jo‘rayev Shukrullo Alishboyevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

[manaviyv@mail.uz](mailto:manaviyv@mail.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy publitsistikaning o‘rni va ahamiyati, Badiiy-publitsistik janrlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib brogan olimlar va ularning ilmiy-nazariy qarashlari hamda Erkin Vohidov badiiy publitsistikasining o‘ziga xos tomonlari, shoir she’riyatida aks etishi masalasiga oid fikrlar bayon etilgan.*

### **ABSTRACT**

*The role and importance of artistic journalism in Uzbek literary studies, scholars who have conducted scientific research on artistic and journalistic genres and their scientific-theoretical views, as well as the specific aspects of Erkin Vahidov’s artistic journalism, thoughts on the issue of its reflection in the poet’s poetry stated.*

**Kalit so‘zlar:** Badiiy publitsistika, “publitsistik asar”, ocherk, feleton, pamphlet.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, ko’plab mashhur adiblar o’zlari yaratgan betakror so’z san’ati namunalari bilan bir qatorda, ayni bir vaqtda, jo’shqin ijtimoiy faoliyati va yetuk publitsistik asarlari bilan ham insoniyat tafakkuri va ma’naviyati rivojiga yetarlicha hissa qo’shganlar. XX asr o‘zbek adabiyotining ta’mal toshini qo’yan Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, A.Qodiriy, Cho’lponlarni yoxud adabiyotimizning to’ng‘ich avlodni namoyandalari – G‘afur G‘ulom, Oybek,

H.Olimjon, A.Qahhor, Shuhrat va Sh.Rashidov kabi adiblarimiz ijodini ko'z oldimizga keltiraylik. Ular, avvalo, iste'dodi va davr talabi bilan so'z san'atining deyarli barcha janr va shaklida sermahsul ijod qilishgan. Ayni vaqtda, badiiy publitsistika sohasida, ya'ni maqolanavislikda ham samarali qalam tebratganlar. Boshqacha aytganda, bu adiblarimiz xalqning orzu-umidlari va dard-tashvishlarini nafaqat o'zlarining badiiy asarlarida, balki hozirjavoblik bilan yozilgan publitsistik maqolalari va nutqlarida ham haqqoniy aks ettirganlar. Ular ana shunday publitsistik maqolalari chop etilgan ilmiy-ma'rifiy jurnallar hamda mazmundor, ta'sirchan nutq va suhbatlari bilan ham xalqning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishgan va jamiyat ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lishgan.

Erkin Vohidov ana shu ulug' adiblarimizning qutlug' an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirib, ham she'riyatda, ham badiiy publitsistika sohasida samarali ijod qilib, katta shuhrat qozonganligi hech kimda shubha tug'dirmaydi.

Ushbu mavzuni o'rganar ekanmiz, shoir ijodida "Publitsistika" nima, "ijtimoiy publitsistik lirika" va "publitsistik asar" kabi tushunchalarga ham biroz to'xtolib o'tishimizga to'g'ri keladi. Hozirga qadar yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, uzoq yillar davomida foydalanib kelinayotgan "Adabiyotshunoslik terminlari" lug'atlarida ham badiiy publitsistika yoki publitsistik asar nima u boshqa adabiy tur va janrlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanishi haqida yetarli ma'lumot berilmagan. Masalan, yirik adabiyotshunos-olimlarimiz tomonidan tayyorlangan va O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti tomonidan chop etilgan ikki jildli "Adabiyot nazariyasi" kitobida ham "Publitsistika" to'g'risida alohida ta'rif yoki ma'lumot keltirilmagan. Faqat adabiy tur va janrlarga bag'ishlangan qismida Lirika janrlariga ta'rif berishda ularning bir necha xillarga bo'linishi tushuntirilib va shu jumladan, "Ijtimoiy-publitsistik lirika deb, muayyan davrlarda jangovar ijtimoiy masalalarga bag'ishlab yozilgan... she'rlar nazarda tutiladi", -deya umumiyoq bir ta'rif beriladi. Bizningcha, bu ta'rifda, avvalo, publitsistik asarlarga xos xususiyatlar to'liq ko'rsatilmagan. Ikkinchidan, publitsistik asarlar, albatta, "jangovor ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan" bo'lishi kerak degan tavsif-talab ham o'rini emas. Chunki

bu ta’rif adabiy jarayon va janrlar tabiatini hamda spetsifikasi nuqtayi nazaridan ham muvofiq kelmaydi.

Yoki bir necha mualliflar tomonidan oliy o’quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida yaratilgan va ko’p yillardan buyon foydalanimlib kelinayotgan “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligi ham, shuningdek, mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “O’qituvchi” nashriyotida chop etilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o’zbekcha izohli lug‘ati”da ham, afsuski, badiiy publitsistika janriga to’liq ta’rif berilmagan. Jumladan, mazkur lug‘atda “Publitsistika – Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagি asarlar: Publitsistik maqolalar, ocherk, pamphlet, murojaatnoma, felyeton va h.k.”<sup>1</sup> – deb izoh berib o’tiladi xolos. Bu ta’rif ham, bizning nazarimizda, bahsli ko’rinadi. Chunki ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozilgan “barcha turdagи” asarlarni, masalan, she’r yoki hikoyani ham publitsistika deb atash to’g‘ri bo’lmaydi. Ikkinchidan, jamiyat hayoti va ma’naviyatiga taalluqli mavzu hamda muammolarga yoxud axloqiy-estetik masalalarga bag‘ishlangan publitsistik asarlar – maqola yoki nutq va suhabatlar ham bo’lishi mumkin, bunga ko’plab misollar topiladi. Shu o’rinda haqli bir savol tug‘iladi: yirik adib hamda mutafakkirlarning maqola va nutqlari yoxud ularning turli mavzudagi suhabatlarini qaysi tur va janrga mansub, deb aytsak to’g‘ri bo’ladi?

Rus adabiyotshunosi M.S. Cherepaxov publitsistikada janrlar masalasi ko’pchilik tadqiqotchilarining diqqat markazida ekanligini, bu borada yagona, qat’iy mezon yo’qligini qayd etadi<sup>2</sup>. Shu sababli olim publitsistik janrlarning muhim xususiyatlarini qat’iy mezon sifatida ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, ocherk, maktub, pamphlet, esse, suhabat kabi janrlar mohiyatan ba’zida sof publitsistik, ba’zida badiiy-publitsistik, ba’zan esa adabiy-tanqidiy xarakterga ega bo’lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazaridan badiiy-publitsistik janrlar olimlar tomonidan turlicha tasnif qilinadi. R.Muhammadiyev “Publitsistika janrlari” kitobida o’zbek gazeta va

<sup>1</sup> Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o’zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent., 1983. – B. 263.

<sup>2</sup> Черепахов М.С. Проблемы теории публицистики. – М.: Мысль, 1973. – С. 212.

jurnallari asosida publitsistik janrlarga qisqacha ta’rif berib, ularning bir-biridan farqlarini sharxlaydi<sup>1</sup>.

O’zbek badiiy publitsistikasining asosiy xususiyatlarini o’rgangan M.Husayinov publitsistikani ilmiy-nazariy adabiyotlardagi qarashlar asosida uch turga, ya’ni ilmiy publitsistika, siyosiy publitsistika, badiiy publitsistikaga bo’lib o’rganadi<sup>2</sup>.

Badiiy-publitsistik janrlar bo’yicha ilmiy tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Ochil Tog‘ayev esa janr xususiyatlariga ko’ra publitsistikani voqeiy-informatsion (xabar, reportaj, hisobot, korrespondensiya), analitik (maqola), badiiy-publitsistik (ocherk, feleton, pamflet) turlarga ajratadi<sup>3</sup>.

Biz yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo’shilgan holda, badiiy-publitsistik janrlar qatoriga ocherk, felyeton, pamfletdan tashqari esseni hamda adabiy suhbat, adabiy o’ylarni kiritish maqsadga muvofiqligini aytmoqchimiz. Chunki esse, adabiy suhbat, adabiy o’ylarda badiiy, ilmiy, publitsistik mushohada yetakchilik qilishini, badiiy publitsistika janrlari singari unda sinkretizm hodisasi kuchli namoyon bo’ladi.

Erkin Vohidov badiiy publitsistikasining janr xususiyatlari haqida so’z yuritar ekanmiz, avvalo yozuvchi ijodida esse va adabiy suhbat, adabiy o’ylar janrlari alohida o’rin tutishini ko’rsatib o’tishimiz joiz. Adibning “Iztirob”, “Shoir she’ru shuur” asarlaridagi maqolalarni ijodkorning o’zi ham shunday deydi: “Bu kitobni dastalar ekanman, bosib o’tgan hayot yo’lim ko’z oldimdan o’tdi. Unda ko’p o’nqircho’nqirlar, yanglishlar, izlanishlar bor. Negaki, boshimizdan kechirgan kunlarimizning o’zi notekis, murakkab, xatolarga to’la bo’lgan. Biz haq so’zni aytish qiyin bo’lgan zamonda yashadik. Bu ish hozir ham, demokratiya va oshkoraliq hukmron bo’layotgan davrda ham unchalik oson emas.

Qo’lingizdagagi kitob muallif dunyoqarashining shakllanish yo’llarini aks ettiradi. Men bu to’plamga turli yillarda turli munosabat bilan bayon qilingan fikrlarim, dunyoqarash ifodasi bo’lgan she’rlarimdan namunalar kiritdim<sup>4</sup>. Bundan anglashiladi-

<sup>1</sup> Мухаммадиев Р. Публицистика жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. – Б. 124.

<sup>2</sup> Хусаинов М. Ўзбек бадиий публицистикасининг асосий хусусиятлари: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент., 1968. – Б. 36.

<sup>3</sup> Тогаев О. Адаблар ва жанрлар. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1976. – Б. 5.

<sup>4</sup> Вохидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 5

ki, biz tahlil etayotgan yozuvchi badiiy publitsistikasida adabiy o'ylar turkumi salmoqli ekanligi bejizga emasligini his etamiz. Bundan tushunish mumkinki, yozuvchi publitsistikasida qaysi janrning almashinib kelishi, bir ijodkorning muayyan ilmiy publitsistika, siyosiy publitsistika, badiiy publitsistikaga ko'p yoki kam murojaat etishi, qaysi janrda qanday ijtimoiy muammolarni yoritishi, bir janr ichida boshqa publitsistik janrlarga xos unsurlarning uchrashi, janrlarning yozuvchi yashayotgan davr va uning yoshi, tajribasi, iste'dodi, dunyoqarashi bilan bog'liq holda yuzaga chiqishi, ijodkor yuqorida ta'kidlaganidek, davr, tuzum umuman yozuvchi yashagan muhit bilan ko'proq bog'liqligini bilishimiz mumkin.

Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo'lgan publitsistik asarlari uning she'r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan bo'lib, ular xalqqa, jamiyatga xizmat qilishdek olivjanob maqsadlar bilan yo'g'rilgan. Ona – Vatanimizga va xalqimizga bo'lgan fidoyilik va jonkuyarlik Erkin Vohidovning deyarli barcha she'rlari hamda publitsistik maqolalari, nutq, suhbatlarining ham asosiy g'oyaviy mazmun yo'nalishi edi. Eng muhimi – ularda yuksak ma'naviyatli xalqimiz zakovati, yorug' keljakka umid-ishonchi ham aks etib turadi. Erkin Vohidov Mustaqillikka erishish arafasida xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, haq-huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g'oyat og'ir salbiy oqibatlari, xususan, Farg'ona vodiysida 1989-yili ro'y bergan noxush voqealar haqida "Ota yurting omon bo'lsa" nomli maqolasida o'zining iztirobli o'y-fikrlarini alam va azob bilan yozganligi adabiyotimiz hamda tariximizning unutilmas dardchil sahifalari bo'lib qoldi. M.Husayinov tasniflagan siyosiy publitsistika ham shoir ijodida alohida xalqona vatanparvarlik ruhida aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

Publitsistikaning muhim jihatlaridan biri uning hujjatliligidir. "Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko'rinishida, publitsistik organizmning har bir hujayrasida ana shu omilning ta'siri sezilib turadi" <sup>1</sup>. Erkin Vohidov badiiy publitsistikasining bu xususiyatiga ko'ra chinakam yurtparvar, mutafakkir shoir

<sup>1</sup> Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975. – С. 6-7

sifatida o'ziga xos hozirjavoblik, chuqur hamdardlik, qayg'udoshlik yetakchi o 'rin tutishini ko'rishimiz mumkin. Ijodkor badiiy publitsistik fikrlarining qanchalik to'g'ri hamda asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar shuningdek, so'nggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham to'la tasdiqladi. Ya'ni Erkin Vohidov sobiq sho'ro davridagi xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada erta-yu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sog'lig'ini yo'qotib kelgan paxtakor-u dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini va uning dard-u tashvishlarini qanchalik haqqoniy yoritganligi O'zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o'tmish tariximizni anglab olishi hamda bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi, ulkan ahamiyatini tasavvur etishida ham zarur hayotiy saboqdir. Davr bilan hamqadam bo'lgan Erkin Vohidov maqolalarida to'g'ri ta'kidlaganidek, endilikda mustaqil mamlakatimiz – yangi O'zbekistonimiz erishgan va erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlar hamda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida yurtimiz ham, ong-tafakkurimiz ham beqiyos darajada o'zgardi. O'tmishdagi hayot bilan bugungi hayotimizni taqqoslasak, yer bilan osmoncha farq bor. Barcha sohada chuqur islohot va katta o'zgarishlar ro'y berganligi hamda ular jadal davom etayotganligini hatto xorijliklar ham havas bilan tan olayapti. Birgina ma'naviyatimiz sohasidagi yangilanish va o'zgarishlarni ko'z oldimizga keltiraylik. Mustaqil yurtimizda milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hamda ulug'ajdodlarimiz merosiga bo'lgan munosabat, ayniqsa, O'zbek tili va adabiyotimizga bo'lgan yuksak e'tibor va cheksiz g'amxo'rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g'ururlanadi.

Shoirning ko'p yillik tajriba, kuzatishlari va ijodiy mahoratining samarasi bo'lgan, hamisha bedor hamda bezovta qalbining kechinmalari sifatida san'atkorona ifodalangan publitsistik asarlaridagi ustuvor jihatlardan yana biri shundaki, ularda yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqimizning zakovati, shuningdek, keljakka umidishonchi ham yorqin aks etib turadi. Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida g'oyat hozirjavoblik, chuqur hamdardlik va umidvorlik bilan

yozgan asarlarining qanchalik haqqoniy hamda asosli ekanligini nafaqat voqealar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, so'nggi yillarda xalqimiz hayotida yuz bergen tub burilishlar ham to'la tasdiqladi.

“O'zimiz o'z ichimizda bir-birimizga har qancha yaxshi-yomon gap aytsak ko'taramiz. Lekin xorijda o'zbeklar haqida faqat yaxshi so'zlar aytishini istar edim. Biz boy emasmiz, ammo himmatlarga boy xalq farzandlarimiz”. Darhaqiqat, ushbu fikr-mulohazalar ayni mustaqillikka erishgan yillarimizda (1992-yil 17-yanvar. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi) aytilgan bo'lsa-da, lekin muallifning bunday da'vatkor shikasta mulohazalari o'z dolzarbli va ahamiyatini yo'qotmaganligini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, Erkin Vohidov millat va vatan ravnaqi yo'lida yosh avlod tarbiyasiga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz kerakligini, o'sib kelayotgan yoshlarimiz kelajagimiz bunyodkori bo'lishlarini aytib, dilidagi o'y va tashvishlarini bayon etadi: “Yurtni yurt qiladigan, aslida uning qarchig'ay o'g'lonlaridir. Ochig‘ini aytsam, biz bolalarimizni bo'sh tarbiyalaganmiz. Biz ko'rgan qiyinchiliklarni ular ko'rmasin deb, hamma narsani muhayyo qilishga uringanmiz. To'ylarida necha bosh-oyoq sarupolar qilib, yillab oyoq uzatib yotsa bo'ladigan sharoit yaratib qo'yganmiz. Bola aziz, odobi undan aziz, deymiz. Lekin endi yangi zamonda odobli bo'lishning o'zi juda kam. Akvariumda o'sgan baliqlar ochiq dengizga tashlansa, ular boshqa baliqlarga yem bo'ladi. Musichalar zamoni o'tdi, burgutlar, qarchig'aylar kerak Vatanga.”<sup>1</sup> Erkin Vohidovning badiiy hamda ijtimoiy jihatdan iste'dodi ko'rinish turgan bunday maqola va suhbatlarini o'qigan kitobxon ko'nglidan shunday bir xayol o'tsa ajab emas: har doim ham shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olimlarmizning maqola yoki nutqlarida bunday hayotiy mushohada va mantiqiy fikrlar ifodasini uchratmaymiz.

Shu bilan birga, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast adib qalbi va shaxsi, ya'ni shoirning keng miqyosli badiiy-estetik tafakkur-mushohadasi, el-yurt bilan

<sup>1</sup> Воҳидов Э. Юлдузли онлар шукуҳи. Асарлар. Олтинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 10.

chuqur hamdardu-hamnafasligi, o'ziga xos jonkuyarligi va ijodiy shijoati ko'rinish turadi. Qolaversa, shoirning mumtoz she'r-u dostonlariga xos bo'lgan badiiy til, o'zbekona so'z sehri-fasohati uning publitsistik maqola va suhbatlarida ham katta hayajon bilan o'qilishiga sabab bo'ladi. Bu haqda o'ylaganimizda, eng avvalo, shunday bir fikr ko'nglimizdan kechadi: taniqli adib va munaqqidlarimiz yakdillik bilan ta'kidlaganidek, Erkin Vohidov ijodida xalqimiz yaqin o'tmishda boshidan kechirgan ham suronli, ham g'am-anduhli kunlarning haqqoniy manzaralari yorqin aks ettirilgan. Shu bilan birga ularda Mustaqillikdan keyingi yillardagi yorug' kunlarimizning buyuk ne'mat ekanligi ham o'zining teran ifodasini topgan deyilsa, ayni haqiqatni ifodalagan bo'lamiz.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent., 1983. – B. 263.
2. Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 5
3. Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. унта., 1975. – С. 6-7
4. Черепахов М.С. Проблемы теории публицистики. – М.: Мысль, 1973. – С. 212.
5. Мухаммадиев Р. Публицистика жанрлари. – Ташкент: Ўзбекистон, 1965. – Б. 124.
6. Ҳусаинов М. Ўзбек бадиий публицистикасининг асосий хусусиятлари: Филол. фанлари номзуд. дисс. – Ташкент., 1968. – Б. 36.
7. Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. – Ташкент: F. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 5.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929083>

**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI BA'ZI BIR  
MUAMMOLAR HAQIDA**

**Baybulatov Nurjan Saken o'g'li**

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Qurbanova Madina Anvar qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti

Ona tili va adabiyot: qozoq tili va adabiyoti yo'nalishi

22-23-guruh talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish haqida, shu bilan bir qatorda ona tili darslarida o'quvchilarinig nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi ba'zi bir muammolar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, ta'lim tizimi, ilg'or zamonaviy metodlar, nutqiy kompetensiya, mustaqil tafakkur, kreativ va ijodiy fikrlash, og'zaki nutq, mustaqil fikrlash, o'qish va yozish nutqiy ko'nikmalar, grammatik qoidalar.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается одна из основных задач обучения родному языку – развитие у учащихся навыков самостоятельного мышления, креативного и творческого мышления в соответствии с нормами литературного языка, а также некоторые проблемы формирования речевой компетенции учащихся на уроках родного языка.*

**Ключевые слова:** современные технологии, система образования, передовые современные методы, речевая компетентность, самостоятельное мышление, творческое и творческое мышление, устная речь, самостоятельное мышление, речевые навыки чтения и письма, грамматические правила.

### ANNOTATION

In this article, one of the main tasks of teaching the native language is to independently reflect on students following the norms of the literary language, to cultivate the ability to think creatively and creatively, as well as to reflect on some problems in the formation of speech competence of students in the lessons of the native language.

**Keywords:** modern technologies, educational system, advanced modern methods, speech competence, independent thinking, creative and creative thinking, oral speech, independent thinking, reading and writing speech skills, grammatical rules.

**KIRISH.** Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng hozirgi davrgacha ta’lim, maorif, san’at va madaniyat sohalarida juda katta ishlar amalga oshirildi. Iqtidorli va salohiyatlari yoshlarni chet davlatlarda o‘qishi uchun bepul grantlar tashkil etildi va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta’lim tizimi ham joriy etildi, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha yoshlarimiz xalqaro olimpiadalarda yuqori marralarni qolga kiritdilar. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘s sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki, bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas» [ 6 ]. Bu esa yana o‘sha Birinchi va Ikkinci Renessans davrlari kabi ilm-fan va madaniyatga katta shartsharoit va keng ko‘lamda e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz, sababi shuki, maktabni, ta’lim-tarbiyani tartibga solmay turib, shaxsni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi [ 2; 232-238].

**NATIJALAR.** Bugungi kunda yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yosh avlodga chuqur bilim berish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu jarayon ona tili o‘qituvchilarning har bir darsni ilg‘or zamonaviy metodlar, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishning samarali yechimlarini topish bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ona tili

o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish hamda o‘zining fikrini og‘zaki, yozma shaklda aniq, sermazmun, tushunarli, savodli tarzda ifodalashni o‘rgatishdan iborat. Shu bois ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini o‘quv topshiriqlari asosida rivojlantirishga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetentsiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim hisoblanib, uni rivojlantirishda qator omillarning o‘rni ahamiyatlidir.

Nutqiy kompetensiyalar rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nutq turlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. “Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki noto‘liqligi ham har xil bo‘lishi tabiiy” [5; 4]. Har bir o‘quvchida, avvalo, og‘zaki nutq rivojlanib borishi mumkin, biroq og‘zaki nutqidagi fikrini, qarashini ifodalayotganida yozma nutq me’yorlariga amal qilishi hamda ikkala nutq shaklida ham fikrlar bayonining ketma-ketligi, izchilligi nazardan chetda qolmasligi kerak [4; 62-64].

Bugungi kunga kelib har bir soha uchun zamonaviy texnika taraqqiyoti juda tez rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanish davrida oliy ta’lim muassasalari talabalarini zamon talablariga monand, ish beruvchilar talablariga mos, ishlab chiqarish texnikalarini amaliyotda qo‘llay olidagan va jamoaviy ishlay oladigan kadr qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalalarning echimini topish va Oliy ta’lim muassasalarda uni amalga oshirish ustida ko‘plab islohatlar amalga oshirilib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘zaro integrasiyasini va kasbga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Barcha fanlarni o‘qitish tizimli muvofiqlashtirilgan bo‘lishi, bu yagona maqsad – davr talablariga muvofiq kasbiy moslasha oladigan tarmoqli mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

**ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** So‘nggi yillarda respublikamizda til o‘qitish tizimini yangicha innovatsion sifat bosqichiga olib chiqishga oid islohotlar umumiy o‘rta ta’lim ona tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy kompetensiya komponentlarini egallahsga doir ilmiy-nazariy bilimlarni chuqr o‘rganish, erkin, kreativ, ilmiy va mantiqiy fikrlash hamda atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish, og‘zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishlari uchun zarur imkoniyatlar bermoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or o‘qitish uslublari ommalashmoqda. Ona tili ta’limi har bir millatning taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi muhim omildir, agar barcha sohada ilmiy renessansni amalga oshirmoqchi bo‘lsak, buni ona tili ta’limini takomillashtirishdan boshlash kerak [ 3; 371-377].

O‘quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish uchun ona tili ta’limining mazmunini tubdan yangilash, o‘quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, ta’lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar bir qator maktab “Ona tili” darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o‘quv materiallarning hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. Professorlar H. Ne’matov va A.G‘ulomov ona tili ta’limining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, o‘quvchilarga nimalarni o‘rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o‘rinli asoslagan edilar [1; 27].

**MUHOKAMA.** Raqobatbardosh, malakali kadrlarni tarbiyalash ona tili ta’limi oldida turgan dolzarb vazifa bo‘lib, uni amalga oshirish umumiy o‘rta ta’limning asosiy vositasi bo‘lgan darsliklar, ulardan o‘rin olgan o‘quv materiallarining saviyasiga ko‘proq bog‘liqdir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kun ona tili ta’limi maqsadi darslarda asosiy ta’lim vositasi faqat darslik bo‘lishini taqozo etmaydi. O‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham belgilangan mavzular mohiyati bilan bog‘liq tarzda, odatda, “axborot banki” materiallari (lug‘atlar, ma’lumotnomalar, qomuslar, qaydlar va h.lar)ga tez-tez murojjaat etishlari lozim. Afsuski, ona tili ta’limi mazmuni

yangilanganiga qariyib yigirma yildan oshgan bo'lsa-da, maktab o'qituvchilarini-mizning aksariyati hamon faqatgina darslikdagi bor materiallaridan foydalanish-moqda.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ular mavjud bo'ladigan barcha lisoniy hamjamiyatlarda, ya'ni: o'z oilasida, tengdoshlari davrasida, ijtimoiy muhitlarda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyatlar davomida sayqallanib boradi, chunki o'quvchi o'z navbat bilan ham so'zlovchi, ham tinglovchi pozitsiyasini egallaydi, jarayonning faol ishtirokchisi sifatida savol-javoblarda qatnashadi, munosabat bildiradi, o'z fikrlarini himoya qilishda so'z boyligidan to'la foydalanishga ehtiyoj sezadi. Shu holat o'quvchi leksikonida hikmatli so'zlar, maqollar, hikoyalardan eshitib, o'qib o'zlashtirgan so'zlardan amalda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tinglash, so'zlash, o'qish va yozish tarkibiy elementlari o'quvchilarda bir-birini taqoza etuvchi hamda to'ldirib boruvchi o'zaro chambarchas bog'langan nutqiy jarayonlar bo'lib, har biri nutqiy faoliyatning rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari tizimli va uzuksiz ravishda o'qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab rejaga muvofiq til sathlariga oid grammatik qoidalar va ularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirilib boriladi. Shu bilan bir qatorda, ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ham rivojlantirilib boriladi.

**XULOSA.** Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida til o'qitish tizimida ham zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan holda o'quvchilarda tinglash, so'zlash, o'qish va yozish nutqiy ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish bugungi davr talabidir.

Demak, nutqiy kompetentsiya ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchining o'zi uchungina shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi emas, balki o'zining va o'zgalarning savodxonligi, ya'ni ommaviy savodxonlik uchun xizmat qiladigan vositadir.

**Foydalanimgan adabiyotlar ruyxati:**

1. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'lifi mazmuni.–T.: O'qituvchi, 1995. – B. 27.
2. Hasanova F.X. “Uchinchi Renessans – ta'lim va taraqqiyot: o'tmish, bugun va kelajak”. International scientific journal of biruni ISSN (E) 2181–2993 Vol. 3, Issue 2. Nov. (2024). –B. 232-238.
3. Pardayeva G. J. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish/Inter education & Global study. ISSN 2992-9024 (online) 2024, –№ 8. –B. 371-377.
4. Qurbanova O. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda nutqiy omillarning o'ziga xosligi. “Zamonaviy dunyoda ijtemoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. – Toshkent, 2023. – B. 62-64
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlod, 2009. – B. 4.
6. <https://kun.uz/48193366?q=%2F48193366#>! (Murojaat: 14.02.2025)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964253>

## ИБН ҲОЖИБНИНГ “КОФИЯ” АСАРИДА КЕЛГАН МАНСУБОТЛАРНИ ЁРИТИЛИШИ

Хамиджанов Мухаммаджон

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Ибн Ҳожибнинг машҳур “Кофия” асарида мансуботларнинг ёритилиши ўрганилади. Араб тилишунослигида мансубот категорияси синтактик боғланишиларнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланиб, гап таркибидаги сўзларнинг ўзаро нисбатини белгилашда катта аҳамиятга эга. “Кофия” араб морфологияси ва синтаксисининг асосий қоидаларини қисқа, лекин мукаммал тарзда баён этиши билан ажралиб туради. Ибн Ҳожиб ушибу асарида мансуботларни таърифлашда аввалги грамматик анъаналар, хусусан, Сибавийҳ, Замахшарий ва Ибн Жинний қараашларига таянади. Шу билан бирга, у уларнинг лингвистик ёндашувларини ўз услуби билан такомиллаштирган. Мақолада мансуботларнинг “Кофия”даги таснифи ва уларга берилган таърифлар таҳлил қилинади. Ибн Ҳожиб мансуботларни синтактик жиҳатдан тушунтиришида на фақат анъанавий назарияни давом эттирган, балки баъзи янги ёндашувларни ҳам илгари сурган. Хусусан, у мансубот сўз туркумларини белгилашда нақший ва маъновий боғланиши тамойилларига асосланган ҳолда таъриф берган. Шунингдек, мақолада Ибн Ҳожибнинг мансуботларни белгилашда таъкидлаган асосий қоидалари, уларнинг туркумланиши ва мисоллар орқали қандай изоҳланганлиги муфассал баён этилади. Мақола давомида Ибн Ҳожиб томонидан мансуботга оид қўлланган мисолларнинг мантиқий-таҳлилий изоҳи берилиб, уларнинг араб тилидаги умумий грамматик тизимдаги ўрни аниқланади. Ибн Ҳожибнинг мансуботга оид қараашлари бошқа грамматик мактаблар билан қиёсий таҳлил қилиниб, унинг ёндашувларининг ўзига хос жиҳатлари ва таъсир доираси очиб берилади. Хусусан, замонавий араб тили грамматикаси билан боғлиқ жиҳатлари таҳлил қилиниб, Ибн Ҳожибнинг келтирган назарияларининг бугунги тилишуносликдаги аҳамияти ёритилади. Шу асосда мақола араб тилишунослиги ва грамматик таҳлил йўналишида тадқиқот олиб бораётган олимлар, араб тили грамматикаси билан шугулланувчи мутахассислар ва талабалар учун муҳим манба бўлиб хизмат қиласади.

**Калим сўзлар:** Ибн Ҳожиб, Кофия, мансубот, араб грамматикаси, синтактик боғланиши, морфология, насабий категория, араб тилишунослиги, грамматик назария, қиёсий таҳлил.

## ОСВЕЩЕНИЕ КАТЕГОРИИ НАСАБНЫХ В ТРУДЕ «КАФИЯ» ИБН ХАДЖИБА

### ***Аннотация***

В данной статье рассматривается освещение категории насабных в известном труде «Кафия» Ибн Хаджиба. В арабском языкоznании категория насабных играет важную роль в установлении синтаксических связей и определении взаимосвязи слов в составе предложения. «Кафия» отличается кратким, но исчерпывающим изложением основ арабской морфологии и синтаксиса. В своем труде Ибн Хаджисб при описании насабных опирался на ранние грамматические традиции, в частности на труды Сибавейхи, Замахшари и Ибн Джинни, адаптируя их подходы в рамках своей концепции. В статье анализируется классификация насабных в «Кафии» и их определения. Ибн Хаджисб не только продолжил традиционную грамматическую теорию, но и представил ряд новых подходов. В частности, он выделял насабные части речи, основываясь как на формальных, так и на семантических связях. Также в статье подробно рассматриваются ключевые правила, установленные Ибн Хаджисбом для категории насабных, их классификация и способы пояснения через примеры. В ходе исследования проводится логико-аналитический разбор примеров насабных, приведенных Ибн Хаджисбом, с целью выявления их места в общей грамматической системе арабского языка. Сравнивая концепции Ибн Хаджисба с подходами других грамматических школ, в статье выявляются уникальные аспекты его взглядов и их влияние. Особое внимание уделяется современному значению представленных в «Кафии» теоретических положений для современной арабской грамматики. Таким образом, статья представляет собой ценный источник для исследователей в области арабского языкоznания, специалистов по арабской грамматике и студентов, изучающих синтаксис арабского языка.

**Ключевые слова:** Ибн Хаджисб, Кафия, насабные, арабская грамматика, синтаксическая связь, морфология, категория насабных, арабское языкоznание, грамматическая теория, сравнительный анализ.

### **KIRISH**

Ибн Ҳожибининг “Кофия” асари араб тилишунослигига муҳим ўрин тутадиган манбалардан бири бўлиб, унинг морфология ва синтаксисга оид қарашлари қўплаб олимлар томонидан ўрганилган. Бу асар нафақат ўз давридаги, балки кейинги асрлардаги араб грамматикасига катта таъсир қўрсатган, илмий анъаналарни шакллантиришда муҳим роль ўйнаган. Ибн Ҳожиб ўз асарида араб тили грамматикасининг асосий тамойилларини қисқа ва мазмунли услубда баён этган бўлиб, унинг назарий аҳамияти жуда каттадир. Шу боис, “Кофия” асари юзасидан олиб борилган таҳлиллар ҳалигача ўз

долзарбилигини йўқотмаган. Мансуботлар араб тили синтаксиси ва морфологиясининг муҳим қисмларидан бири ҳисобланади. Улар гап ичидаги сўзлар ўртасидаги нисбатни аниқлаш, уларни тўғри грамматик жойлаштириш ва маъно жиҳатидан тўғри талқин қилишда катта роль ўйнайди. Ибн Ҳожиб ўз асарида мансуботларнинг синтактик вазифаларини, уларнинг морфологик ўзгаришларини ва грамматик хусусиятларини кенг ёритган. У араб тилшунослигига шаклланган илмий анъаналарга таянган ҳолда, ўз давридаги энг мукаммал назарий асосларни баён этган. Айниқса, унинг мансуботга оид таҳлиллари нафақат анъанавий назарияларнинг давоми сифатида, балки уларни мукаммаллаштирувчи янги ёндашувлар сифатида ҳам намоён бўлади. Ушбу мақолада “Кофия” асарида мансуботлар тушунчаси, уларнинг таснифи ва грамматик таҳлилдаги ўрни атрофлича ўрганилади. Хусусан, Ибн Ҳожибининг мансуботларга нисбатан берган таърифлари, уларнинг синтактик ва морфологик хусусиятлари таҳлил қилинади. Бундан ташқари, унинг назарияси бошқа грамматик мактаблар томонидан мансуботлар борасида билдирилган фикрлар билан қиёсий таҳлил қилинади. Бу орқали “Кофия” асарининг араб грамматикасини шакллантиришдаги ўрни ва унинг тилшуносликка қўшган ҳиссаси аниқланади. Ибн Ҳожибининг мансуботларни талқин қилишдаги ёндашуви бошқа машҳур тилшунослар, жумладан, Сибавийх, Замахшарий ва Ибн Жинний назариялари билан қиёсланиб, улар орасидаги ўхшашлик ва фарқлар очиб берилади. Бунинг орқали унинг услуби ва араб тили морфологиясига қўшган ҳиссаси чуқурроқ ёритилади. Унинг ёндошувлари фақат грамматик қоидалар билан чекланиб қолмай, балки уларнинг амалий татбиқи, тилдаги истиқболлари ва турли нутқий жараёнлардаги қўлланилиши ҳам кўриб чиқилади.

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ибн Ҳожибининг “Кофия” асари юзасида олиб борилган тадқиқотлар араб тилшунослигининг турли даврларида юзага келган бўлиб, бугунги кунда ҳам ушбу асар илмий қизиқиш манбаи бўлиб қолмоқда. Унинг грамматик тизими ва назарий қарашлари нафақат ўз давридаги, балки кейинги асрлардаги араб тилшунослик мактабларига ҳам жиддий таъсир ўтказган. Шунинг учун Ибн Ҳожиб томонидан мансубот тушунчасининг ёритилиши грамматик таҳлил нуқтаи назаридан муҳим аҳамиятга эга. Мавзу бўйича асосий манбалар Ибн Ҳожибининг “Кофия” асари ва унинг турли даврлардаги шарҳлариdir. Хусусан, Ибн Молик, Ибн Ҳишом, Ашмунӣ, Сайд Шариф Журжоний каби машҳур тилшунослар ушбу асарни изоҳлаш ва мукаммаллаштиришга катта ҳисса қўшган. Бу шарҳлар орқали Ибн Ҳожибининг мансуботга оид қарашлари турли таърифлар ва ёндашувлар асосида кенгроқ ёритилган. Шунингдек, Ислом

цивилизациясидаги тилшунослик анъаналарини ўрганишда Сибавийхнинг “Китоб” асари, Замахшарийнинг “Аль-Муфассал”, Ибн Жиннийнинг “Ас-Сараф” каби манбалар муҳим аҳамиятга эга. Ушбу манбалар Ибн Ҳожибгача бўлган ва ундан кейинги даврлардаги грамматик мактабларнинг шаклланишига таъсир кўрсатган.

Тадқиқот жараёнида қўлланилган методлардан бири қийосий-таҳлилий метод бўлиб, у Ибн Ҳожибнинг мансубот ҳақидаги қарашларини бошқа грамматик мактаблар билан солиштириш имконини беради. Басра ва Куфа тилшунослик мактаблари томонидан мансубот тушунчасининг қандай талқин қилинганини таҳлил қилиш орқали, Ибн Ҳожибнинг ёндашуви қай даражада анъанавий ёки инновацион эканини аниқлаш мумкин. Шунингдек, структур метод орқали мансуботларнинг араб тили грамматикасининг морфологик ва синтактик тизимидағи ўрни таҳлил қилинди. Бу ёндашув мансуботларнинг грамматик тузилишини, уларнинг бошқа сўз тоифалари билан боғланишини ва гап ичидағи функцияларини аниқлашда муҳим восита бўлиб хизмат қиласди. Ибн Ҳожиб ўз даврида нафакат тилшунос, балки ҳуқуқшунос-фақих сифатида ҳам машҳур бўлган. Шунинг учун унинг грамматик ёндашувлари ҳуқуқий-фиқҳий анъаналар таъсирида шаклланган бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан, ҳуқуқий-фиқҳий таҳлил усули ҳам тадқиқотга қўлланилди. Бу усул орқали Ибн Ҳожибнинг мансуботга оид баёнлари фиқҳий илмий анъаналар билан қандай боғлиқ экани таҳлил қилинди. Тадқиқотда Ибн Ҳожибнинг мансуботга оид қоидаларини грамматик тизим доирасида ўрганиш билан бирга, уларнинг замонавий араб тилшунослигига таъсири ҳам ўрганилди. Унинг назариялари ҳозирги араб тили таҳлилида қай даражада амалда қўлланилиши ва ушбу қарашларнинг ҳозирги тилшунослик методологияси билан боғлиқ жиҳатлари таҳлил қилинди.

Шунингдек, тадқиқот доирасида Ибн Ҳожибнинг мансубот ҳақидаги ёндашувлари бошқа машҳур тилшунослар, жумладан, Сибавийх, Замахшарий ва Ибн Жинний назариялари билан қиёсий таҳлил қилинди. Уларнинг ёндашувлари ва таснифи орасидаги фарқлар ҳамда ўхшашликлар очиб берилди. Бунинг натижасида Ибн Ҳожибнинг “Кофия” асаридаги мансуботга оид қарашлари қайси жиҳатлари билан анъанавий, қайси жиҳатлари билан янги ёндашув сифатида шакллангани аниқланди. Бундан ташқари, тадқиқотда мансуботларнинг замонавий араб тили грамматикасидаги қўлланилиш ҳолатлари ҳам кўриб чиқилди. Замонавий тилшуносликка кўра, мансуботларнинг вазифалари, уларнинг нутқий жараёндаги роли ва семантик хусусиятлари батафсил таҳлил қилинди. Ушбу методологик ёндашувлар асосида тадқиқотда мансубот тушунчасининг тарихий ривожланишини аниқлаш, Ибн

Ҳожибнинг мансуботга оид ёндашувларини таҳлил қилиш ва унинг назарияларининг замонавий тилшуносликдаги аҳамиятини кўрсатиш мақсад қилинди. Шу тариқа, ушбу тадқиқот Ибн Ҳожибнинг “Кофия” асарида мансуботларнинг қандай ёритилганини илмий-манбай таҳлил қилишга, унинг тилшуносликка қўшган ҳиссасини очиб беришга ва унинг назарияларини замонавий тилшунослик нуқтаи назаридан қайта баҳолашга қаратилган. Мазкур таҳлил ва методология араб тили грамматикасини чуқур ўрганиш, унинг тарихий ривожланишини тушуниш ва замонавий тилшунослик нуқтаи назаридан мансуботларнинг тутган ўрнини аниқлашда муҳим илмий асос бўлиб хизмат қиласи. Шунингдек, мазкур тадқиқот араб тили грамматикаси бўйича таҳлиллар олиб бораётган тадқиқотчилар, тилшунослар ва талабалар учун фойдали маълумот манбаи бўлиши мумкин.

## НАТИЖАЛАР

Ибн Ҳожибнинг “Кофия” асарида мансуботларнинг ёритилиши араб тилшунослигидаги грамматик тушунчаларни аниқлаш ва уларнинг луғавий ҳамда морфологик ҳусусиятларини ўрганишда муҳим илмий асос яратиб берган. Ушбу тадқиқот натижалари асосида қўйидаги холосаларга келиш мумкин. Биринчи навбатда, Ибн Ҳожиб мансубот тушунчасини аниқ ва мукаммал шаклда баён қилган. У ўз асарида мансуботларнинг синтактика вазифаларини ва уларнинг гап таркибида тутган ўрнини аниқлашда, анъанавий Басра ва Куфа тилшунослик мактаблари методларидан фойдаланган. Шу билан бирга, у уларга янгича ёндашув киритган, яъни мансуботларнинг морфологик ҳусусиятларини фақатгина грамматик белгилар асосида эмас, балки маъновий ва луғавий жиҳатдан ҳам баҳолаган. Иккинчидан, мансуботларни таснифлашда Ибн Ҳожиб умумқабул қилинган категорияларни сақлаган ҳолда, уларнинг семантик ва услубий ҳусусиятларини ҳам таҳлил қилган. У мансуботларнинг тузилишида фақатгина назарий ёндашув билан чекланмай, уларнинг амалий қўлланилишига ҳам эътибор қаратган. Масалан, у мансуботларнинг турли араб нутқ контекстларида қандай ўзгаришга учраши ва уларнинг маънолари қай тарзда модификация бўлиши ҳақида муҳим маълумотлар берган. Учинчидан, Ибн Ҳожиб мансуботларнинг фойдаланилишдаги грамматик функцияларини таҳлил қилишда қўллаган услуби, унинг бошқа тилшунослардан фарқини кўрсатади. У мансуботларнинг нафақат луғатдаги вазифаларини, балки уларнинг турли синтактик структураларда қандай фойдаланилишини ҳам тадқиқ қилган. Бу ҳолат унинг тилшунослик методологиясидаги мукаммалликка интилишини кўрсатади. Тўртинчидан, Ибн Ҳожибнинг мансуботга оид қарашлари араб тилшунослигидаги турли грамматик мактабларнинг таснифи ёндашувларини бирлаштирган ҳолда, ўзига хос ва аниқ назарий моделни таклиф қиласи. Унинг

тахлиллари нафақат араб тилидаги грамматик қоидаларни умумий тарзда ёритиш, балки уларни лўнда ва мантикий тарзда тизимлаштиришга қаратилган. Бу эса унинг услуби анъанавий назариялардан фарқли равишда, реал тил фаолиятига яқинлашганини кўрсатади. Бешинчидан, мазкур тадқиқот доирасида Ибн Ҳожибнинг мансуботга оид ёндашуви Сибавийх, Замахшарий ва Ибн Жинний каби машҳур тилшуносларнинг қарашлари билан қиёсий таҳлил қилинди. Бу орқали Ибн Ҳожибнинг мансуботга нисбатан ёндашуви қанчалик мустақил ва инновацион экани аниқланди.

### МУҲОКАМА

Ибн Ҳожибнинг “Кофия” асарида мансуботларнинг ёритилиши араб тилшунослигининг ривожланишида муҳим босқичлардан бири сифатида қаралиши мумкин. Унинг грамматик тизимиға оид ёндашувлари нафақат ўз даврида, балки кейинги асрларда ҳам тилшунос олимлар томонидан баҳс мавзуси бўлиб келган. Ҳозирги тилшунослик нуқтаи назаридан “Кофия” асаридаги мансуботлар ҳақидаги қарашларни таҳлил қилиш, уларнинг назарий асослари ва амалий аҳамиятини ўрганиш долзарб илмий масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Биринчи навбатда, Ибн Ҳожибнинг мансуботга нисбатан ёндашуви Басра ва Куфа тилшунослик мактабларининг ўзаро баҳс ва ихтилофлари доирасида таҳлил қилиниши зарур. Басра мактабида мансуботлар морфологик қоидаларга асосланган ҳолда тушунтирилса, Куфа мактаби уларнинг маъно жиҳатидан ўрганилишига алоҳида эътибор қаратган. Ибн Ҳожиб эса ушбу икки ёндашувни ўзаро уйғунлаштирган ҳолда, мансуботларнинг морфологик ва семантик хусусиятларини мукаммал тушунтиришга ҳаракат қилган. Шу билан бирга, Ибн Ҳожибнинг мансуботга доир қарашлари унинг ўзидан олдинги машҳур тилшунослар, жумладан, Сибавийх, Замахшарий ва Ибн Жиннийнинг ёндашувларидан қай даражада фарқ қилишини баҳолаш муҳимдир. Сибавийхнинг “Китоб” асарида мансуботларнинг луғавий ва морфологик хусусиятлари асосий эътибор марказида турган бўлса, Замахшарийнинг “Аль-Муфассал” асарида уларнинг синтактик вазифалари ва уларнинг гап ичидаги ўрнига алоҳида урғу берилган. Ибн Ҳожиб эса ушбу иккала ёндашувни бирлаштирган ҳолда, мансуботларнинг грамматик вазифаларини чуқурроқ ўрганганди.

Бундан ташқари, Ибн Ҳожибнинг мансуботларни таснифлашдаги ёндашуви унинг давридан кейин ҳам кенг тарқалган ва бошқа тилшунослар томонидан ривожлантирилган. Хусусан, Ибн Ҳишом ва Ибн Молик каби тилшунослар Ибн Ҳожибнинг мансуботлар ҳақидаги таърифларини шарҳлаш ва уларни янада мукаммаллаштиришга интилишган. Бу ҳолат “Кофия” асарининг мансуботларни ўрганишдаги илмий аҳамиятини янада кучайтиради. Ибн

Ҳожибнинг мансуботларни грамматик жиҳатдан таҳлил қилишдаги услуби мураккаб, бироқ аниқ назарий асосларга эга. У турли грамматик формаларнинг мансубликка таъсирини тушунтиришда ёрқин ва тушунарли мисоллар келтирган. Ушбу ёндашув ҳозирги замон тилшунослигидаги ҳам ишлатилиши мумкин, чунки у грамматик структураларни изчил тушунтириш ва уларнинг амалдаги қўлланилишини аниқлашга ёрдам беради.

bo‘yicha milliy ta’lim standartlarini yaratishga yondashuv tizimli, yani muayyam tizimga solingan bo‘lib, u “Al-jabr” deb nomlanadi. Bu nomda o‘ziga xos “tiklanish” ma’nosи mujassamlangan[6,3-b].

Standartlar ta’limning boshlang‘ich davridanoq barcha o‘quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o‘qish jarayonida to‘liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta’lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta’minalash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim. Standartlar barcha o‘quvchilarga Shu bois, amaliyat standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o‘tirmaymiz.

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarni o‘quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosini amaliy, tadbiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

, kichik o‘quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta’lim fanlarini o‘rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o‘quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o‘quv fani bo‘yicha o‘zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog‘lanish imkoniyatlarini ochadi va ta’lim samaradorligini oshiradi[5, 16-b].

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko‘ra ko‘proq amaliyatga e’tibor berish hamda o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma’lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko‘proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o‘quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o‘lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o‘rnida foydalanish talab etiladi. O‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shunchaki shakllantirib

qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Izlanishlarimizning maqsadiga ko'ra mustaqil fikrlash xususiyatlarining xarakateristikasini ko'rib chiqamiz [4-22-b].

**Fikrlashning chuqurligi** matematik fakti va masalaning mohiyatiga kirib borish qobiliyatida, asosiysini ikkinchi darajalidan ajrata bilishda ifodalanadi.

**Elastikligi** faoliyatining bir usulidan ikkinchi usuliga osongina o'tish, faoliyat usulini maqsadga muvofiq o'zgartira olish qobiliyatida ifodalanadi.

**Fikrlashning faolligi** masalani echishga qaratilgan tirishqoqlikning doimiyligi.

**Fikrlashning tanqidiylici** masalani echish yo'li to'g'ri tanlanganligiga baho bera olish qobiliyati, faoliyat usulining unumliligida, natijaning to'g'riliqida, faoliyatni doimo normada saqlash qobiliyatida ifodalanadi.

**Ratsional fikrlash** turli parametrlarga qo'yib faoliyat usullarini taqqoslash qobiliyati, masalani echishda kam vaqt sarflanadigan usullarini topa olishda ifodalanadi.

**Fikrlashning originalligi** qo'yilgan muammo yoki berilgan masalaning ajoyib, boshqa usullardan farqli usul bilan echishdir. U ko'pincha fikrlashning teranligi va chuqurligining natijasida namoyon bo'ladi.

**Fikrlashning mustaqilligi** masalaning echish usulini mustaqil, birovning yordamisiz topa olishida, faoliyatning oraliq va oxirgi natijalarini ko'ra bilishda, fikrmuloxazalarining mustaqil, erkin va asosligida ifodalanadi.

Mustaqil fikrlashning ijodiy xususiyatlari tahlil qilinayotganda o'quvchilardagi matematik rivojlanishiga tashxis qo'yishda, bizning nazariyamizda, o'quvchilar quyidagi xususiyatlarga ega yoki yo'qligini aniqlab olishimiz muhimdir. Bular: teranlik, elastiklik, mustaqillik, fikrlashning faolligi, tanqidiylik va turlilik, umumiylilik, ratsionallikdir. Bunday xususiyatlar o'kuvchilarda faqatgina matematika bo'yicha emas, balki matematikaga yaqin bo'lgan fanlardan ham o'rganish sifatini oshiradigan didaktik ahamiyatga egadir.

Ijodiy fikrlashning ajratilgan xususiyatlar tizimidagi mustaqillik fikrlashning ijodiy, mahsulotli xususiyati deb o‘rganilmoqda. M.G.Davletshin mahsulotli fikrlash tushunchasiga teranlik, elastiklik, mustahkamlik, qarama-qarshiliklarni sezish kabi xususiyatlarni kiritmoqda. Z.Nishanova mahsulotli fikrlashga turli xususiyatlarni kiritmoqda. Mualliflarning ko‘pchiligi ijodiy fikrlash uchun fikrlashda mustaqilika ega bo‘lish muximdir[4].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

2. Dzhumaev M.I. Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172>

3. Djumayev M.. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son .2024 / 148-165 b. <http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>, E-mail: [fizmat\\_jurnali@inbox.uz](mailto:fizmat_jurnali@inbox.uz)

4. M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172>

5. Djumayev M.I Ta’lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpsti.uz 1(5)2024 163-168 <http://buxpsti.uz>

6. Dzhumaev M.I. Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964437>

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORAZMIY TA'LIM MODELIDAN FOYDALANISH

Burxonov S.A.,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.-m. f. n.,

Sadikova A.V

Nizomiy nomidagi TDPU professori v.b., p.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lism tizimi doirasida joriy etilayotgan "Xorazmiy ta'lism modeli"ning asosiy jihatlari va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Modelning maqsadi, tamoyillari, qo'llaniladigan usullar va kutilayotgan natijalar tahlil qilingan. Talabalarning algoritmik fikrlashi, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlanishi usullari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazmiy ta'lism modeli, ta'lism integratsiyasi, o'qitish metodikasi, umumiy o'rta ta'lism sifati, fanlararo fikrlash, texnologik ta'lism.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХОРЭЗМИЙСКОЙ МОДЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные аспекты и значение "Хорезмийской модели образования", внедряемой в рамках системы образования Узбекистана. Проанализированы цель модели, её принципы, применяемые методы и ожидаемые результаты. Рассмотрены методы развития алгоритмического мышления, творческих и практических навыков студентов.

**Ключевые слова:** Хорезмийская модель образования, интеграция образования, методика преподавания, качество общего среднего образования, междисциплинарное мышление, технологическое образование.

## USING THE HAREZMI EDUCATIONAL MODEL TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

**Abstract:** This article examines the main aspects and significance of the "Harezmi Educational Model", which is being implemented within the education system of Uzbekistan. The article analyzes the model's purpose, principles, applied methods, and expected outcomes. Methods for developing students' algorithmic thinking, creative, and practical skills are also discussed.

**Keywords:** Harezmi Educational Model, education integration, teaching methodology, quality of general secondary education, interdisciplinary thinking, technological education.

Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida (1) o'qitish metodikasini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lif sifatini tubdan oshirish, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, hozirgi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangi ta'lif modellari joriy etish talab etilmoqda.

Bu vazifalarni bajarish bo'yicha Innovatsion rivojlanish agentligi hamda Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi-TIKAning O'zbekistondagi Vakolatxonasi bilan hamkorlikda uyuştirilgan Turkiya davlatining Anqara shaxrida 2024-yil 1-9 iyun kunlari o'tkazilgan "Integratsion o'qish va o'qitish modellari asoslari" mavzusidagi Xorazmiy ta'lif modelini o'qitish va seminar treningida O'zbekistonlik doktorant va izlanuvchilar ishtiroy etishdi. Ushbu seminarda izlanuvchilar ilmiy tadqiqot ishlari uchun kerakli bo'lgan bilimlarga ega bo'lishdi. Undan tashqari Turkiyaning Gazi Universiteti, Bashkent Universitetida tajriba almashishdi hamda muktab va maktabgacha ta'lif tashkilotlarida Xorazmiy ta'lif modelining amalda qo'llanishi va ularning ta'lif jarayonlaridagi ahamiyati bilan yaqindan tanishishdi.

Mazkur ta'lif modeli ajoyib natijalarga poydevor bo'lishini hisobga olib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lif fakultetida tanlov fan sifatida o'qitala boshlanmoqda.

**Xorazmiy ta’lim modeli** - informatika, tabiiy fanlar, matematika, ijtimoiy fanlar, san’at, texnologiya va sport fanlari bo‘yicha fanlararo fikrlay oladigan, yodlash va monotonlikdan uzoqda bo‘lgan, o‘zining nazariy bilimlarini o‘z mahorati bilan amalda qo‘llay oladigan, tabiiy fanlarni o‘zaro birlashtira oladiganlar va yutuqlarimiz garovi bo‘lgan ilm-fan va ijtimoiy hayot, zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lgan farzandlarimizni milliy-ma’naviy qadriyatlarga moslashtirishni maqsad qilgan ta’lim modelidir. Bunda o‘qituvchilar ta’lim jarayonini fanlararo yondashuv bilan rejalashtiradi, o‘quvchilar o‘zi to‘plagan ma’lumotlariga asoslanib hayotdagi muammolarni aniqlaydi, yechimlar uchun g‘oyalar va dizaynlarni ishlab chiqaradi. U o‘qituvchining kasbiy malakasini oshirishga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning texnologik vositalardan to‘g‘ri va samarali foydalanishiga, algoritmik fikrlash va masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qo‘shtgan hissasi tufayli ta’limning boshqa jarayonlariga bevosita va sifatli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan u barchamiz uchun umumiyligida ta’lim modeli bo‘lish xususiyatiga ega.

**Xorazmiy ta’lim modelining muhim elementlari** bu uning fanlararo yondashuvi bo‘lib, hayotdagi muammolarni aniqlash va bu muammolarni hal qilish uchun tanlangan o‘qitish vositalaridir. Xorazmiy ta’lim modelida axborot kommunikatsion texnologiya, tabiiy fanlar, matematika, ijtimoiy fanlar, badiiy dizayn va sport fanlari o‘zaro integratsiyalashib, dasturlash va o‘qitish vositalaridan samarali foydalanilgan holda hisoblash fikrlash qobiliyatları hayotga moslashtiriladi. Bunda turli fanlar yutuqlaridan unumli foydalanish talab etilib, fanlararo yondashuv va hamkorlikdan samarali foydalaniladi. Bu robototexnika va o‘yin dizayni yordamida o‘zini doimiy ravishda yangilab turuvchi ta’lim modeli bo‘lib, talabalar didaktik o‘yinlar paytida kashfiyotlar qiladilar.

#### **Xorazmiy ta’lim modelining maqsadi:**

- talabalarni hayot muammolarini aniqlash va ularga innovatsion va samarali yechimlarni ishlab chiqarish uchun tadqiqot va ishlanma usullarini hamkorlikda qo‘llash jarayonida algoritmik fikrlashga o‘rgatish, kognitiv va metakognitiv, ijtimoiy-emotsional, amaliy va jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

- talabalarni hayot davomida doimiy o‘rganishga rag‘batlantirish va texnologiyadan xavfsiz, unumli va ishlab chiqarishda axloqiy foydalanish bo‘yicha xabardorligini oshirish orqali ularga zarur kompetensiyalarni berishga qaratilgan;
- o‘quvchi va talabalarning hamkorlikda ishlash usuli;
- innovatsion texnologiyalar integratsiyasi va fanlararo yondashuv orqali o‘quvchilarning qiziqishlari, ko‘nikmalari va o‘rganish ehtiyojlariga e’tibor qaratish;
- ishlab chiqish, joriy etish va foydalanish jarayonlarida tajriba orttirish;
- shaxsiy, tadqiqot, ishlab chiqish va kasbiy rivojlanishni takomillashtirish, hamda o‘quv dizaynlarini baholash,
- o‘quvchilarning kashfiyotlari yoki ilmiy yutuqlarini professional muhitda ommalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

Manfaatdor tomonlar (ota-onalar, maktab jamoasi, olimlar, jamiyat, pedagogika institutlari, ekspertlar va boshqalar) nuqtai nazaridan Xorazmiy ta’lim modeli o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim rahbarlari o‘zlarining hayotiy tajribalari yoki ma’lum vaziyatlarda o‘z yordami bilan real hayot muammolarini aniqlash va hal qilish jarayonida o‘quv tizimiga maxsus o‘zgartirishlar kiritish orqali o‘quv jarayonining yanada samarali bo‘lishini ta’minlashga intiladi. O‘quvchilarning jarayon bo‘yicha fikr-mulohazalarni to‘plashi, jarayon bilan bog‘liq ma’lumotlarni olimlar va mutaxassislar bilan tahlil qilishi, model bo‘yicha ilmiy qo‘llanmalar ishlab chiqarishi, ushbu nashrlar natijalarini o‘rganishi va baholashi, modelni ishlab chiqishi, takomillashtirishi va yangilashda ishtirok etishi taqazo etadi.

### **Model tamoyillari:**

Xorazmiy ta’lim modeli individual shug‘ullanish va sifatli o‘rganish uchun quyidagi to‘rtta tamoyil ishlab chiqilgan.

1. Jarayon fan tarmoqlari (informatika; tabiiy fanlar va matematika, ijtimoiy fanlar, san’at, texnologiya va sport kabi fanlar) yutuqlaridan foydalangan holda fanlararo yondashuv asosida rejalashtiriladi, amalga oshiriladi va baholanadi.

2. Talabalar tomonidan to‘plangan ma’lumotlar asosida, o‘qituvchilar rahbarligida, mahalliy, milliy va umumbashariy miqyoslarni hisobga olgan holda hayotdagi muammolar aniqlanadi.

3. Haqiqiy muammolarni hal qilish uchun tanlangan o‘qitish vositalari (kompyutersiz, blok yoki matnga asoslangan dasturlash, robototexnika, didaktik o‘yinlar, sun’iy intellekt dasturlash kabi) qo‘llaniladi.

4. Izlanish tadqiqot va loyiha usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Xorazmiy ta’lim modelida bolalar texnologiyadan foydalangan holda qanday qilib ishlab chiqarish mumkinligini kashf etadi, shuningdek, xavfsiz, axloqiy va milliy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, hamda o‘qituvchilari bilan ilmiy tadqiqot usullari bilan aniqlangan jarayonni baholaydi va o‘zgartirishlar kiritib maxsulot ishlab chiqadi. Bu talabalarning kundalik, real hayotiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish algoritmlarini loyihalash, bu muammoni qanday hal qilishni bosqichma-bosqich aniqlash va dasturlash yutuqlaridan foydalangan holda innovatsion g‘oyalarni izlab topish jarayonidir.

Model asosida informatika fanini o‘qitish natijasida ijtimoiy fanlar bo‘limi bilan integratsiyalashadi, “Kompyuteriy fikrlash” ko‘nikmasi hayotga moslashtiriladi, “Dasturlash va o‘qitish” vositalaridan unumli foydalaniladi, fanlararo yondashuvni qayta talqin qilish orqali turli fanlar yutuqlaridan unumli foydalaniladi; Bunday hamkorlik natijasida "Robotik va O‘yin" dizayni yordamida qiziqarli maxsulotlar ishlab chiqaradigan va natijalarni ilmiy baholash natijasida o‘zini doimiy ravishda yangilab turadigan ta’lim modeli paydo bo‘ladi.

Xorazmiy modelida qo‘llaniladigan faol o‘rganish usullari amaliy maqsadlar va ularning yechmini kashf qilish orqali o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi, ota-onalar va o‘quvchilarning fikr-mulohazalari hisobga olinib, tabiiy fanlar, matematika, tarix, ona tili, axborot texnologiyalari fanlari birgalikda o‘rganiladi. Ma’lum bo‘lishicha, mavzularni o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘rganish, tahlil qilish o‘quvchilarga yangi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida taqqoslash va o‘rganilgan ma’lumotlarni real hayotga oson tadbiq etish imkonini beradi.

Ushbu modelida talabalar hayotiy muammolarni aniqlash va ularga innovatsion va samarali yechimlarni ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot usullarini hamkorlikda qo'llash jarayonida algoritmik fikrlash, kognitiv va metakognitiv, ijtimoiy-emotsional, amaliy va jismoniy ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchilar esa o'quvchilarning qiziqishlari, ko'nikma va o'rganish ehtiyojlariga e'tibor qaratib, ta'limni rivojlantirish, amalga oshirish va baholash jarayonlarida tajriba orttirish orqali ularning shaxsiy, ilmiy-tadqiqot va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Hamkorlikda ishlash natijasida innovatsion texnologiyalar integratsiyashib, professional muhitda fanlararo yondashuv dizayn va ilmiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishishga poydevor bo'ladi. U kashfiyat jarayonining barcha jabhalarida har bir o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shib, ular ishlab chiqqan va taqdim etayotgan ilmiy hulosalarini qo'llash orqali ta'limning barcha darajalarida ekotizimda hamkorlikda ishlash va tajriba almashish jarayoniga samarali hissa qo'shishga qaratilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.
3. Eğitimde kullanılan yapay zekâ araçları. Öğretmen el kitabı. - t.c. millî eğitim bakanlığı yenilik ve eğitim teknolojileri genel müdürlüğü- 2024 – Ankara
4. Burxonov S.A., Sangirova Z., Qo'nishhev J. Fizika. Boshlang'ich saboqlar. Toshkent. "Zamin nashr", 2020-yil. 336 bet
5. Burxonov S.A. «Tabiatshunoslik» fanini qanday samarali o'qitish mumkin? "Raqamlı ta'lim muhitida boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuv" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. I-qism. 04.10.2024 yil. 51-53 bet
6. Vlasova, V.K., Khamatvalieva, R.R., Zakirova, V.G., Zhumabayeva, A.E., Sadikova, A.V. The Development of Integrative Qualities of Primary School Teachers in the Context of Distance Learning // Education and Self Development, 2022, 17(3), страницы 187–201

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964457>

## O'QUVCHILARNI MASOFADAN O'QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI

**Davkarova O'g'iloy**

Maktabgacha ta'lim yonalishi talaba

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy ta'lim va masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini yaratish texnologiyalari va ta'lim soxalarida tashklillashtirish tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha ishlar olib borilgan va didaktik ta'minot uslubiy ko'rsatkichlari va didaktik ta'minotning avtomatlashgan tizimlari va funksional tizimlari yetarlicha boyitilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni masofadan o'qitishning dolzarb mavzulari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Masofadan o'qitish, masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyasi, didaktik ta'minot, didaktik ta'minot texnologiyasi, avtomatlashgan tizim, didaktik ta'minotning avtomatlashgan tizimlari.

**Abstract:** In this article, work was carried out on the formation of the main tasks and practical skills of the technologies of distance education and didactic support of distance education and the principles of their organization in medicine and in the fields of education, and didactic support methodological indicators and automated systems and functional systems of didactic support are sufficiently enriched and current topics of distance education of medical workers and students are considered.


**Key words:** distance education, distance education, distance education technology, didactic support, didactic support technology, automated system, automated systems of didactic support.

## KIRISH

O‘quvchilarini va ta’limda hamda makatablarda izlanuvchan yoshlar bilan bo‘sh vaqtlarini va umumiy amaliy ko‘nikmalarni masofadan turib yetarli shart–sharoit ostida uzog‘ini yaqin qilib birgalikda hamnafas fikr almashishlariga o‘rgatish o‘zlarining bilimlarini masofadan turib turli xil fan adabiyotlari bilan boyitish uchun imkoniyatlar yaratish ularni ma’nан fikriy qobilyatini boyitish maqsadida masofaviy ta’lim didaktik ta’mintonini avtomatlashgan tizimini ishlab chiqishdan va uni soxalarda keng qamrovda tatbiq etishdan iborat bo‘lgan masalalarni o‘rganishga chuqur singdirishimiz kerak. Masofaviy ta’lim o‘qitish modeli axborot va fan muhitidan iborat bo‘lib, o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi o‘quv materiallarini, o‘quv maqsadining dasturiy ta’mintonini hamda o‘quvchi faoliyatini boshqarish modelini oladi. Avtomatlashgan har bir tizim alovida qo‘llaniladigan yo‘nalishlar uchun tizimli tashkil etilgan jarayonlardan bilimlarini masofaviy didaktik ta’mot va adabiyotlar bilan boyitib borilishi keng qamrovda tushuntirib o‘tiladi. {1-59 – 65} b

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Masofaviy ta’limda avtomatlashgan didaktik ta’mot talab etiladi.



### 1.1-rasm. Avtomatlashgan didaktik tizim tuzilishi

**Didaktik ta’mot-** aniq fan mazmuni bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualardan iborat bo‘ladi.

**Funksional ta'minot** - o'quv mazmunini o'rganishni modellashtirish imkonini beradi va **pedagogik hamda texnologik** qismlardan iborat bo'ladi.

**Pedagogik** –pedagogik maqsadga erishish uchun maqsadga va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik uslublar va texnologiyalarni uslubiy ketma-ketligi.

**Texnologik** - pedagogik maqsadga erishish uchun foydalilaniladigan axborot texnologiyalari ketma-ketligi. Texnologik qismni tuzishda o'qituvchining ishtiroti pedagogik va axborot texnologiyalarini birlashtirish imkonini beradi

## NATIJALAR

Pedagogik imkoniyatlarning ortib borishi natijasida esa o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron dasturiy mahsulotlar, multimedia ilovalaridan foydalanish yo'lga qo'yildi. Axborotning elektron tovush, tasvir, matn ko'rinishlaridan o'quv-tarbiya maqsadini ro'yobga chiqarishda samarali hisoblangan kompyuterli o'qitish metodikasi ta'limga kirib keldi. O'qitishning bunday metodikasining ahamiyati o'quvchining bilish jarayonidagi quyidagi psixologik holatlarida ko'rindi:

- diqqatni jamlashda;
  - ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirishda;
  - o'quv predmeti, darsga qiziqishning ortishi va bilimlarni ixtiyoriy tarzda o'zlashtirishda;
  - izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga faol kirishishda;
  - o'zini boshqa o'quvchilarga nisbatan baholashda.
- O'z navbatida, o'qituvchi faoliyatida kompyuterli o'qitish:
- ish vaqtini to'g'ri taqsimlashda;
  - o'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlashda;
  - berilayotgan axborotning ko'lmini oshirishda;
  - o'quv topshirig'inining turlarini kengaytirishda; - sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirishda;
  - kasbiy malakani muntazam oshirib borishda ahamiyatli sanaladi.{ 2-100-106b}

## MUHOKAMA

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati – o'qitish jarayonining barcha bosqichlari, jumladan, yangi o'quv materiallarini tushuntirish, takrorlash, umumlashtirish, talaba (tinglovchi)larning fan bo'yicha erishgan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonlarda kompyuter talaba (tinglovchi) uchun turli vazifalar, xususan, pedagogik, ta'lim vositasi, ta'lim ob'ekti, o'zaro muloqot hamkori kabi funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga bilimlarni baholash va ularning tegishli standart va talablarga mosligi monitoringini tashkil etishdagi afzallikkлari uning o'qitish tizimiga keng joriy etilishiga sabab bo'ldi. {3-64 b}

## XULOSA

Boshqaruv bloki uslubiy ta'minot bo'yicha turli xil nazorat sinovlari uchun mo'ljallanadi. Masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini tashkillashtirish va uslubiy asosalarini o'rganishda tibbiy xodimlar va ularni malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib kerakli adabiyotlar va ular bilan birgalikda ularning umumiyligi holatdagi bilimlarini o'zaro almashish va bilimlarini nazorat qilish va masofadan turib foydalinishga qulaylik yaratish maqsadida keltirilgan sharoitlar yaratilgan.

**O'quv bloki fan bo'yicha quyidagilardan tashkil topadi:**

- ✓ o'quv rejalar va dasturlar;
- ✓ darslik va uslubiy qo'llanmalar;
- ✓ an'anaviy bosma o'qitish vositalari;
- ✓ kodogrammalar;
- ✓ diapozitivlar;
- ✓ o'quv kinofil`mlari;
- ✓ jadvallar;
- ✓ o'quv mashg`ulotlarini o'tkazish uchun didaktik materiallar;
- ✓ o'quv jihozlari;
- ✓ mul`timediali dars ishlanmalari;
- ✓ o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi

**References:**

1. Asqarov A.D., Masofaviy o‘qitish ta’lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta’lim 2015, 10. 59 – 65 b.
2. Masofaviy ta’limning afzalliklari va kamchiliklari // Ta’lim: muvaffaqiyatga erishish yo‘li. - Ufa, 2010 yil. 100-106b
3. Zakirova F., Muxamedxanov U., SHaripov SH., Isyanov R., Esanboboev F., Dottoev S.. Elektron o‘quv-metodik majmular va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma.– T.: OO‘MTV, 2010. –64 b
4. [www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)
5. <https://tktishf.edu.uz/>
6. <https://dist.edu.uz>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964539>

## RAQAMLI KONTENTLAR YARATISH ASOSIDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSHDA AXBOROT-TAHLİL KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Meyliyev Sobirjon Xolmuradovich**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'limga matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

[sobirjonmeyliyev@gmail.com](mailto:sobirjonmeyliyev@gmail.com)

*Annotatsiya: Ushbu maqolada raqarnli kontentlar vositasida talabalarni mustaqil ta'limga olish kompetentligini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Mustaqil ta'limga an'anaviy ta'lidan farqli jihatlari, uning samaradorligi va zamonaviy ta'limga tizimida tutgan o'mi ko'rib chiqiladi.*

*Kalit so'zlar: mustaqil ta'limga, raqamli kontent, axborot, tahlil texnologiyalari, pedagogik metodlar, kognitiv kompetensiya, interaktiv ta'limga.*

**Аннотация:** В данной статье анализируется методика развития самостоятельной учебной компетентности студентов средствами различного содержания. Рассмотрены отличия независимого образования от традиционного образования, его эффективность и роль в современной системе образования.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, цифровой контент, информационные технологии, педагогические методы, познавательная компетентность, интерактивное образование.

*Abstract. This article analyzes the methodology of developing students' independent learning competence by means of various contents. Different aspects of independent education from traditional education, its effectiveness and its role in the modern education system are considered.*

**Keywords:** independent education, digital content, information technologies, pedagogical methods, cognitive competence, interactive education.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalaming o‘mi tobora ortib bormoqda. Xususan, talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetentligini rivojlantirishda raqamli kontentlardan foydalanish va ularda axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqarnli ta’lim resurslar masofaviy ta’lim platformalari, multimedia materiallari hamda interaktiv dasturlar talabalar bilim olishini yanada samarali va qulay shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Raqarnli kontent — bu elektron vositalar orqali taqdim etiladigan ta’lim materiallari bo‘lib, matn, audio, video, interaktiv darsliklar va onlayn kurs larni o‘z ichiga oladi. Ushbu kontent turlari talabalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkonini beradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, muammolarni mustaqil hal qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentligini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Raqarnli ta’lim platformalaridan foydalanish — Coursera, edx, Khan Academy kabi xalqaro platformalar va milliy ta’lim portallari orqali talabalar turli fanlardan mustaqil bilim olishi mumkin.

Mustaqil ta’lim olish — bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan o‘quv maqsadlariga erishish uchun mustaqil ravishda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalami egallash jarayoni bo‘lib, bunda ta’lim oluvchi o‘z vaqtini, manbalarini va o‘qitish usullarini o‘zi boshqaradi. Bu jarayon reflektiv tahlil, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va mas’uhyatni talab qiladi.

Mustaqil ta’lirn olishda axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirishning afzallik tamonlari quyidagilardan tashkil topgan [1]:

1. Moslashuvchanlik — Talaba o‘zining shaxsiy jadvali va imkoniyatlariga mos ravishda o‘qishjarayonini tashkil etadi.
2. Tanqidiy fikrlash rivoji — Mustaqil ta’lim oluvchi ma’lumotlami mustaqil tahlil qiladi, baholaydi va xulosa chiqaradi.
3. Mas’uliyat va o‘zini boshqarish — Talaba o‘z bilim olish jarayoni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi va o‘z-o‘zini nazorat q ilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

4. Resurslarga keng kirish imkoniyati — Turli raqamli ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar va boshqa manbalardan foydalangan holda o‘z bilim doirasini kengaytiradi.

5. Ijodkorlik va innovatsion yondashuv Talaba yangicha o‘rganish metodlarini sinab ko‘rish, mustaqil loyiha va tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

6. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish — Mustaqil ta’lim olish orqali talaba o‘zining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini doirniy ravishda takomillashtiradi. Quyidagi jadvalda an’naviy va mustaqil ta’lim jarayonlarining asosiy xususiyatlari qiyosiy tahil qilingan (1-jadval):

An’naviy va mustaqil ta’limning qiyosiy tahlili (1-jadval)

Taqdimot	An’naviy ta’lim	Mustaqil ta’lim
Ta’lim jarayoni	O‘qituvchi tomonidan boshqariladi	Talabaning o‘zi boshqaradi
O‘quv materiallari	Belgilangan darslik va ma’ruzalar asosida	Raqamli resurslar, ochiq manbalar, kitoblar
Moslashuvchanlik	Rigid va qat’iy jadval asosida	Moslashuvchan jadval, istalgan vaqtida o‘rganish imkoniyati
Nazorat turi	O‘qituvchi tomonidan belgilangan test va imtihonlar orqah	O‘z-o‘zini baholash amaliy ishlasmalar va loyiha tahili orqah
O‘zlashtirish usuli	Dars davomida eshitish va yozib ohsh orqah	Mustaqil tahil qusk tadqiqot va amaliy faoliyat orqah
Motivatsiya manbai	O‘qituvchi va baholash tizimi	Ichki motivatsiya, shaxsiy qiziqishlar
O‘zini boshqarish	Past darajada	Yuqori darajada
Tahliliy fikrlash	Ko‘proq tayyor mavzularni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan	Mustaqil izzlanish va xulosa chiqarishga asoslangan
Texnologiyalardan foydalanish	Asosan auditoriya sharoidda kompyuter va proyektorlar	Raqamli ta’lim platformalari, onlayn kurslar, videodarslar

Interfaol ta'lim	Savol-javob va muhokamalar orqah cheklangan interfaollik	Bloglar, onlayn forumlar, guruh loyihalari orqali yuqori interfaollik
Amaliyotga yo'naltirilganlik	O'quv dasturiga bog'lik, cheklangan	o'ziga mos real loyihalar va tadqiqotlar orqah keng imkoniyat
Bilimlarning mustahkamligi	Qisqa muddatli yodlash va baholash uchun tayyorgarlik	Chuqur tushunish va amaliy qo'öash orqali mustahkam o'zlashtirish

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish to'ribdiki an'anaviy va mustaqil ta'lim usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har biri o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq[2]:

Interaktiv o'quv platformalaridan foydalanish — Moodle, Coursera, Udemy kabi platformalar yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish.

Loyihaviy ta'lim metodini qo'llash talabalar tomonidan mustaqil ravishda ta'limiy loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

Garnifikatsiya (o'yinlashtirish) yondashuvi - o'quv jarayonida o'yin elementlarini qo'llash orqali talabalar motivatsiyasini oshirish.

O'z - o'zini baholash tizimlarini joriy etish talabalar bilimini mustaqil baholash imkonini beruvchi test va topshiriqlar yaratish. Raqarnli resurslardan foydalangan holda tahliliy fikrlashni rivojlantirish masofaviy ma'lumotlar bazalaridan, ilmiy maqolalardan foydalanish orqali mustaqil izlanish ohb borish.

Axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish - talabalar uchun tanqidiy fikrlash va ishonchli axborotni ajratib ohsh bo'yicha treninglar tashkil qilish.

Axborot xavfsizligini oshirish - Raqarnli savodxonlik bo'yicha kurslar orqali talabalarga kibermuhitdagi tahdidlar va ularga qarshi kurash usullari haqida bilim berish. Madaniy xilma-xillikni o'rganish - turli davlatlarning ilmiy va madaniy kontentlarini tahlil qilish orqali talabalar xalqaro kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishi

mumkin. Talabalar mustaqil ta’lim olish jarayonida nafaqat yangi bilimlarga ega bo‘ladilar, balki axborotni mustaqil izlash, tahlil q ilish va saralash ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Bu esa ularning tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmasi talabalarga quyidagi imkoniyatlami beradi:

- mayjud bilimlami chuqurroq anglash — olingan ma’lumotlarni turli manbalar bilan taqqoslash va xulosa chiqarish.
- axborotni saralash va baholash — ishonchli va noxolis ma’lumotlarni ajrata bilish.
- muammolarni mustaqil hal qilish — ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatda muammolarni yechish uchun ma’lumotlardan samarali foydalananish.

Shu sababli, mustaqil ta’lim faqat bilim olish jarayoni bilan cheklanmay, balki talabalarni ilmiy izlanish olib borishga, yangi axborotlami izlash va ulardan foydalana bilishga ham o‘rgatadi hamda axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

- 1.Axborot madaniyati: Darslik / M. M. Abdullayeva, G. A. Axmedova. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2018.
- 2.Axborot madaniyati asoslari: O‘quv qo‘llanma / R. X. Xaydarov, N. A. Musayeva. - T.: "O‘zbekiston", 2015.
- 3.Informatsionnaya kultura hchnosti: Monografiya / N. I. Genina. - M.: "Libereya-Bibliotek", 2006.
- 4.Raqarnli ta’lim resurslari: O‘quv qo‘llanma / A. A. Abduqodirov, A. M. Mansurov. - T.: "Innovatsion texnologiyalar", 2020.
5. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma / M. X. To‘xtayev. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2019.
6. Jumaev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi vametodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2013 yil.
7. I-IV sinflar uchun matematikadan qiziqarli masala va topshiriqlar to‘plami o‘quv uslubiy qullanma // S.Meyliyev, M.Xolmuradova, S. Xolmuradov. Toshkent. “O‘qituvch” nashriyoti 2024y.-119b
8. S.Burhonov va boshq. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Sharq” 2012 y

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Терехова, О. Е. (2025). ДЕТСКОЕ ЭКСПЕРИМЕНТИРОВАНИЕ КАК СПОСОБ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. GOLDEN BRAIN, 3(3), 4–8. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928752">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928752</a></b>
2	<b>Karimova, R., &amp; Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI. GOLDEN BRAIN, 3(3), 9–11. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928821">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928821</a></b>
3	<b>Mamatraximova, O. M. (2025). INKLUYUZIF TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH UCHUN ZARUR BO'LGAN TASHKILIY VA USLUBIY ISHLAR. GOLDEN BRAIN, 3(3), 12–17. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928832">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928832</a></b>
4	<b>Мусахожиева, Д. Б., &amp; Ахмедова, М. С. (2025). ПРИМЕНЕНИЕ СЮЖЕТНЫХ ИНСЦЕНИРОВОК НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. GOLDEN BRAIN, 3(3), 18–21. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928837">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928837</a></b>
5	<b>Mardonova, N., &amp; Sariyev, S. U. (2025). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA IJODIY MASHQLARDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 3(3), 22–30. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928895">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928895</a></b>
6	<b>Nabiyeva, D. O., &amp; Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TALAFFUZI VA YOZILISHI FARQ QILADIGAN UNDOSHLARNI O'RGATISH METODIKASI. GOLDEN BRAIN, 3(3), 31–35. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928929">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928929</a></b>
7	<b>Mansurova, X. M. qizi ., &amp; Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAP VA GAPDA TINISH BELGILARINING QO'LLANILISHINI O'RGATISH. GOLDEN BRAIN, 3(3), 36–40. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14928939">https://doi.org/10.5281/zenodo.14928939</a></b>

8

**Reimbayeva, M. Q. qizi ., & Hamrayev, M. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQ TOVUSHLARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 41–45.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14928954>

9

**Astonova, N. O. qizi . (2025). KOSMIK TEXNOLOGIYALAR VA INSONNING KOSMOSDAGI O'RNI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 46–51.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14928970>

10

**Abdullayeva, D. S. qizi . (2025). PROSPECTS FOR FINE-FIBER COTTON CULTIVATION.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 52–56.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14928986>

11

**Jurayeva, D. I. qizi . (2025). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATIV O'QITISH ASOSIDA O'QUVCHILAR NUTQIY KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 57–60.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14928996>

12

**Jamolova, D. (2025). YE.KOROVAY IJODINING O'ZBEKISTON RANGTASVIRI RIVOJIDAGI O'RNI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 61–66.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14929002>

13

**Sattorova, D. G., Ganiyev, O. R., & Ergashev, I. (2025). GLOBALIZATION PROCESSES AND THE IDEOLOGICAL LANDSCAPE OF TODAY'S WORLD.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 67–70.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14929017>

14

**Turoyeva, N., & Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA KELISHIK QO'SHIMCHALARINI O'QITISH METODIKASI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 71–74. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929033>

15

**Abdulazizova, D., & Hamrayev, M. A. (2025). FONETIKA, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 75–78.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14929045>

16

**Madraximova, M. M. qizi ., & Hamrayev, M. A. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISH. GOLDEN BRAIN, 3(3), 79–82. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929059>**

17

**Jo'rayev, S. A. (2025). BADIY PUBLITSISTIKA VA SHOIR IJODI ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA. GOLDEN BRAIN, 3(3), 83–90. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929073>**

18

**Baybulatov, N. S. o'g'li ., & Qurbanova, M. A. qizi . (2025). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI BA'ZI BIR MUAMMOLAR HAQIDA. GOLDEN BRAIN, 3(3), 91–96. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929083>**

19

**Хамиджанов, М. (2025). ИБН ҲОЖИБНИНГ "КОФИЯ" АСАРИДА КЕЛГАН МАНСУБОТЛАРНИ ЁРИТИЛИШИ. GOLDEN BRAIN, 3(3), 97–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964253>**

20

**Саттарова, Д. Г., Эргашева, И., Алаудинова, К., Тургунова, Г., & Хамидуллаева, Ф. (2025). РОЛЬ ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В РАЗВИТИИ И СТАНОВЛЕНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. GOLDEN BRAIN, 3(3), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964303>**

21

**Djumayeva, M. (2025). O'QITUVCHINING PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENSIYASI. GOLDEN BRAIN, 3(3), 109–116. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964332>**

22

**Aminjanova, A. Q. qizi . (2025). MAKTABGACHA TA'LIMDA AQLIY TARBIYA. GOLDEN BRAIN, 3(3), 117–120. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964352>**

23

**Эргашев, Ж. М. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РЕАЛИЗАЦИИ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ ПРЕДМЕТА ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. GOLDEN BRAIN, 3(3), 121–128. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964367>**

**24**

**Джумаев, Ж. М. (2025). ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ «РОБОТОТЕХНИКА» И «ТЕХНОЛОГИЯ» В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КОНСТРУИРОВАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.**  
**GOLDEN BRAIN, 3(3), 129–135. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964382>**

**25**

**Усканова, Ш. (2025). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕШЕНИЕ СЛОЖНЫХ ЗАДАЧ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 136–145.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14964411>

**26**

**Djumayev, M. (2025). TA'LIMDA YANGICHA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 146–153.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14964423>

**27**

**Burxonov, S. A., & Sadikova, A. V. (2025). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORAZMIY TA'LIM MODELIDAN FOYDALANISH.**  
**GOLDEN BRAIN, 3(3), 154–159. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964437>**

**28**

**Davkarova, O. (2025). O'QUVCHILARNI MASOFADAN O'QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 160–164.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14964457>

**29**

**Meyliyev, S. X. (2025). RAQAMLI KONTENTLAR YARATISH ASOSIDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLISHDA AXBOROT-TAHLIL KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.** GOLDEN BRAIN, 3(3), 165–169. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964539>